

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX VA MADANIY MEROS FAKULTETI**

Tarix ta'lim yo'nalishi

Sulaymonova Mohichehra

“1924-1929 yillarda Yevropa davlatlarining iqtisodiy o'sishi”

mavzusidagi

**BITIRUV MALAKAVIY
ISHI**

Ilmiy rahbar:

**J.J. Majidov – Jaxon tarixi
kafedrasi o'qituvchisi**

Buxoro – 2019

Mundarija

Kirish.....	3
1-BOB: Yevropa davlatlari taraqqiyotining o`ziga xos xususiyatlari.....	
I.1.Iqtisodiy o`shish, yangi sanoat tarmoqlari taraqqiyoti.....	
I.2. Mustamlakalarni talash iqtisodiy taraqqiyotning omili sifatida.....	
II BOB: Yevropa davlatlari iqtisodiyotida AQSH ta`sirining o`shishi.....	
II.1. 1-Jahon urushida g`olib davlatlar iqtisodiyotida AQSH ta`siri.....	
II.2. Germaniyani qayta tiklashda AQSHning roli.....	
Xulosa	
Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.....	

Mavzu: 1924-1929 yillarda Yevropa davlatlarining iqtisodiy o`shishi

REJA:

Kirish

I BOB: Yevropa davlatlari taraqqiyotining o`ziga xos xususiyatlari.

I.1 Iqtisodiy o`shish, yangi sanoat tarmoqlari taraqqiyoti.

I.2 Mustamlakalarni talash iqtisodiy taraqqiyotning omili sifatida.

II BOB: Yevropa davlatlari iqtisodiyotida AQSH ta`sirining o`shishi.

II.1 1-Jahon urushida g`olib davlatlar iqtisodiyotida AQSH ta`siri.

II.2 Germaniyani qayta tiklashda AQSHning roli.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

Kirish

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng, jamiyatimiz hayotining barcha sohalarida tub o'zgarishlar jarayoni kechayotgan bir paytda tarixni o'rganish, uni xolis baholash va moziydan bizga meros qolgan qadriyatlardan, tarixiy tajribalardan, foydalanish o'ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Har qanday jamiyat hayotida bunday tub o'zgarishlar bosqichma-bosqich, ba'zan o'n yillar hatto asrlar davomida amalga oshadi. Shu bois tarixiy saboqlarni hisobga olmasdan, xalqlarning tarixini chuqur ilmiy tahlil qilmasdan, xususan mintaqamizdagi davlatchilik tajribalarini o'rganmasdan, turli mamlakatlarning tarixiy taqdirini bilmasdan, bugungi kundagi amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini va ahamiyatini to'liq tushunish mumkin emas.

Birinchi prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: „Tarixiy xotira, xalqning, jonajon o'lkaning, davlatimiz hududining xolis va haqqoniy tarixini bayon etish, milliy o'zlikni anglash, ta'bir joiz bo'lsa milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida nihoyatda muhim o'rin tutadi”.¹

O'zbekistonning mustaqil mamlakat sifatida va bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy-demokratik davlarning barbo etilishida tariximizning o'рни beqiyosdir. Biz o'z ona vatanimiz tarixini o'rganish bilan birga g'arb mamlakatlarining tarixini ham o'rganmog'imiz darkor. Dastavval biz o'z ona vatanimiz tarixini chuqur o'rgannishimiz lozim. Zero, birinchi prezidentimiz I. A. Karimov „O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi...Haqqoniy tarixni bilmasdan turib esa o'zlikni anglash mumkin emas”.² O'z tariximizni o'rganish bilan biz g'arb mamlakatlarini tarixini ham o'rganamiz. Chunki ularning tarixi biri-biri bilan chambarchas bog'liq. Yangi davrda Yevropa davlatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy rivojlanishi turli xil bo'lgan. Shuningdek ushbu davrda asosan birinchi jahon urushidan keyingi davr voqealari to'g'risida bayon etladi. Ma'lum vaqt oralig'ida Yevropa davlatlarining tarixiy taraqqiyoti urli bosqichda kechgan.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - Toshkent: O'zbekiston, 1997. - 140b.

² Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent: Sharq, 1998.-5b.

Xullas, „1924-1929-yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi” mavzusi ham ilmiy, ham amaliy ahamiyatga ega. Mazkur mavzu Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishini, rivojlanish tendensiyalarini, tarixiy tamoyillarini o'rganishga yordam beradi.

Tadqiqodning davriy chegarasi sifatida 1924-1929-yillar olindi. Mazkur davr o'z ichiga Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi va rivojlanishini qamrab oladi.

Muammoni o'rganganlik darajasi. Olib borilgan tadqiqot ishlarini olib borishda bir qator olimlarning asarlaridan keng foydalanildi. Masalan, З.Р.Нуриддинов¹, В.Г.Ревуненкова², В.В.Адександров³, С.А.Могилевский, Д.П.Принскер, В.Г.Ревуненков, С.М.Стецкевич, В.К.Фураев⁴, Ю.В.Борисов⁵, С.Н.Гурвич⁶, М.Дюкло⁷, Ю.В.Егоров⁸, Л.П.Коженникова⁹, С.С.Салычев¹⁰, В.П.Спиринов¹¹, М.Торез¹², З.В.Черхуна¹³, К.Б.Виноградов¹⁴, Ф.Д.Волков¹⁵, П.В.Гурович¹⁶, Н.Ф.Могульский¹⁷, Г.Поллит¹⁸, В.Г.Трухановский¹⁹, А.С.Бланк²⁰, Л.И.Гинсберг²¹, А.С.Бланк²², Д.С.Давидович²³, Я.С.Дрябкин²⁴, Я.С.Дрябкин²⁵, И.М.Кривогуз²⁶, В.

¹ З. Р. Нуриддинов, Гарб мамлакатларининг энг янги тарихи. << Укитувчи >> Т., 1978.

² В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959.

³ В. В. Адександров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945-гг. М., 1986.

⁴ С. А. Могилевский, Д. П. Принскер, В. Г. Ревуненков, С. М. Стецкевич, В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. (1917-1945). М., 1967.

⁵ Ю. В. Борисов, Новейшая история Франции (1917-1964). М., 1966.

⁶ С. Н. Гурвич, Рабочее движение и левый блок во Франции (1921-1926). М., 1966.

⁷ М. Дюкло, Мемуары. М., 1974.

⁸ Ю. В. Егоров, Народный фронт во Франции. Л., 1972.

История Франции. М., 1973.

⁹ Л. П. Коженникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959.

Компартия Франции в борьбе за народный фронт. М., 1968.

Очерки рабочего движения Франции (1917-1967). М., 1968.

¹⁰ С. С. Салычев, Французская социалистическая партия в период между двумя мировыми войнами 1921-1940. М., 1968.

¹¹ В. П. Спиринов, Новейшая история Франции 1918-1975. М., 1979.

¹² М. Торез, Избранные произведения. М., 1959.

¹³ З. В. Черхуна, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976.

¹⁴ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж. М., 1957.

¹⁵ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения (1924-1929). М., 1958.

¹⁶ П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959.

¹⁷ Н. Ф. Могульский Англия в 1924-1927 годах. М., 1957.

Рабочее движение в Англии накануне второй мировой войны. М., 1968.

¹⁸ Г. Поллит, Избранные статьи и речи (1918-1939). М., 1955.

¹⁹ В. Г. Трухановский, Внешняя политика Англии на первом этапе общего кризиса капитализма (1918-1939). М., 1962.

Новейшая история Англии, М., 1958.

Уинстон Черчилль. М., 1977.

²⁰ А. С. Бланк, Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964.

²¹ Л. И. Гинсберг, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатуры. М., 1961.

²² А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970.

²³ Д. С. Давидович, Революционный кризис 1923 г в Германии и Гамбургское восстание. М., 1963.

²⁴ Я. С. Дрябкин, Ноябрьская революция в Германии. М., 1967.

²⁵ Я. С. Дрябкин, Становление Веймарской республики. М., 1978.

²⁶ И. М. Кривогуз, Спартак и образование Коммунистической партии Германии. М., 1962.

Д.Кульбакин¹ kabi olimlarning asarlaridan shuningdek, internet materiallaridan unumli foydalandim. Shuningdek yana bir qator olimlarning asarlarini ham tahlil qilib, ularning manbalaridan tadqiqot ishida unumli foydalandim. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan olimlarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin. К.Либкнехт², М.И.Орлова³, В.Пик⁴, К.Либкнехт⁵,М.А.Полтавский⁶,М.И.Орлова⁷, Г. Л. Розанов⁸, Э. Тельман⁹ kabilar asosan Germaniya tarixiga oid noyob asarlar yozganlar. Yuqorida ta’kidlab o’tilgan olimlarning asarlarida asosan XX – asrning o’rtalariga qadar bo’lib o’tgan Buyuk Britaniya, Germaniya,Fransiya va boshqa Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tarixi mukammal va mufassal bayon etilgan. Shuningdek,tadqiqod ishini yoritish yuqorida zikr etilgan asarlarning o’rni beqiyosdir.

Tadqiqodning maqsad va vazifalari.Mazkur tadqiqodning asosiy maqsadi Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o’sishi va rivojlanish tendensiyalarini o’rganishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda tadqiqot oldiga quyidagi asosiy vazifalar qo’yildi:

- Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ahvolini o’rganilishini tahlil qilish;
- Barqarorlik yillarida Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy ahvolini yoritish;
- Mamlakatlarning ijtimoiy ahvolini tadqiq qilish;
- Barqarorlik yillarida mamlakatlarda iqtisodiy sohada qabul qilingan qonunlarni o’rganish;
- Yevropa mamlakatlarining siyosiy ahvolini yoritish;
- Mamlakatlarning ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi masalalarini bayon etish;

Tadqiqotning manbaviy asoslari. 1924-1929-yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o’sishi mavzusining manbashunosligiancha murakkab masala hisoblanadi. Mazkur mavzuning manbashunosligini shartli

¹В. Д. Кульбакин, Очерки новейшей истории Германии.М., 1963.

²К. Либкнехт, Избранные речи письма и статьи.М., 1961.

³М. И. Орлова, Германия 1918-1939 гг.М., 1973.

⁴В. Пик, Избранные произведения.М., 1956.

⁵К. Либкнехт, Ноябрьская революция в Германии. Сб. статей и материалов.М., 1960.

⁶М. А. Полтавский,Боварская советская республика.М., 1959.

⁷М. И. Орлова, Очерки истории германского рабочего движения.М., 1964.

⁸Г. Л. Розанов, Очерки новейшая истории Германии.М., 1959.

⁹Э.Тельман, Избранные речи и статьи.М., 1957-1958 т.

ravishda quyidagi guruhlarga ajratish mumkin: 1) asosiy hujjatlar, 2) internet materiallari.

Birinchi guruhga mansub manbalarga Buxoro Davlat Universitetining Axborot Resurs markazi, Buxoro viloyati Ibn Sino kutubxonasi va Buxoro viloyati Narshaxiy kutubxonasidagi manbalarda ham 1924-1929-yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Ikkinchi guruhga turli saytlarda e'lon qilingan internet materiallaridan iborat.

Ishning ilmiy yangiligi. Tadqiqotda mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishi yangicha qarashlar va mulohazalar asosida bayon etildi. Arxiv hujjatlari, maxsus adabiyotlar, internet materiallarini o'zaro tahlil qilish natijasida tadqiqotning ilmiy yangiligi sifatida quyidagilar ilgari surildi:

- Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishini bayon etildi;
- Mamlakatlarning barqarorlik yillaridagi dastlabki holati bayon etildi;
- Yevropa mamlakatlarining barqarorlik yillarida ijtimoiy va siyosiy sohada islohatlariga ta'rif berildi;
- Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi xronologik izchillikda yoritilib berildi;
- Barqarorlik yillarida iqtisodiy sohada olib borilgan yangilanishlar va erishilgan yutuqlar haqida mushohadalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. BMI da 1924-1929-yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi haqida batafsil ma'lumotlar berildi. Tadqiqotda bayon qilingan fikrlar va mulohazalardan foydalanib, „Tarix“ fanidan kollej, o'ily o'quv yurtlari uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalar yozish, shuningdek, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish mumkin.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. BMI kirish, ikkita bob, to'rtta paragraph, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqotning umumiy hajmi betdan iborat.

I.1 Iqtisodiy o'sish, yangi sanoat tarmoqlari taraqqiyoti.

XX- asr boshlarida dunyoning ko'pgina mamlakatlarida iqtisodiy inqiroz davri bo'ldi. Jumladan, Buyuk Britaniya ham bundan mustasno emas. 1924-yildan boshlab ko'pgina kapitalistik mamlakatlarda, shu jumladan Angliyada qisman stabillashuv davri boshlandi. Lekin Angliyadagi stabillashuv juda bo'sh va qisqa muddatli stabillashuv edi. Uning iqtisodiyoti asosan turg'unlik holati bilan xarakterlanadi, u AQSH va hatto Fransiyadan ham ancha orqada qolgan edi. Turg'unlik holati ko'proq metallurgiya, ko'mir, to'qimachilik va kemasozlik sanoatlarida ro'y berdi. Hatto 1929-yilga kelganda ham Angliyaning sanoat mahsuloti 1913-yildagi darajasining 99,1%ini tashkil etadi. Ishsizlar bir million kishidan ortiq edi. Tashqi savdoda ham Angliya hissasi kamaya bordi. Jahon bozori uchun kurashda AQSH va Yaponiyadan tashqari, tiklanib kelayotgan Germaniya ham Angliyaga raqobatchi bo'lib qolmoqda edi. Angliya qishloq xo'jaligi inqirozga uchradi. Ekin maydonlari qisqardi. Yerlar lendlordlar qo'lida to'planib qoldi. Angliya hukmron doiralari xo'jalikdagi turg'unlik holatidan chiqish va barqaror stabillashuvga erishishga barcha choralar bilan urindilar. 1925-yilda moliya reformasi o'tkazilib, qadrsizlanib ketgan pul (funt sterling) ning oltin standarti (banknotni oltinga tenglashtirish va oltinga almashtira olish) tiklandi.¹ Chetga kapital chiqarish moliya magnatlariga yanada ko'p foyda keltirar edi. Ammo Angliya savdosi va sanoatining ahvoli bu bilan yengillashmadi, balki og'irlashdi, chunki moliya reformasi jahon bozorida Angliya tovarlari narxining taxminan 12% ko'tarilishiga olib keldi va uning raqobat kuchini boshqa mamlakatlarning tovarlariga nisbatan zaiflashtirib qo'ydi.²

Shuning uchun sanoat egalari, monopoliyalar sanoat tovarlarining jahon bozorida raqobat kuchini orttirish, tovarlar tannarxini kamaytirish, maksimal foydalarga doimo ega bo'lish maqsadida ishlab chiqarish jarayonini ixchamlashtira bordilar, ishchilar sinfini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirdilar, ularning ish haqlarini kamaytirdilar, mustamlaka va qaram mamlakatlar talon-taroj qilina-verdi.³ Ingliz mustamlakachilari o'zlarining asosiy mustamlakasi bo'lgan Hindistonda diniy va milliy avj oldirib, hind yirik burjuaziyasi va feodal-

¹Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., <<O'qituvchi>>, 1978, 268-bet.

²O'sha asarda, 268-bet.

³O'sha asarda, 269-bet

pomeshchik doiralariga tayanib, hind mehnatkashlar ommasini ekspluatatsiya qilishni kuchaytirdilar; har yili Hindistondan 150-180 million funt sterling foyda olib turdilar. Monopoliyalar o'z pozitsiyalarini mustahkamlashga ko'p urinib, ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasini kuchaytirdilar, yirik monopolistik birlashmalar vujudga keldi.¹ 4 ta yirik konsernning birlashuvidan tashkil topgan „Imperiya ximiya tresti“ mamlakatning eng yirik qudratli tresti bo'lib qoldi. Davlat apparati bilan monopoliyalar o'rtasida yanada yaqin aloqalar o'rnatildi.² Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy hayotida yirik monopoliyalar uyushmasi Britaniya sanoat federatsiyasi muhim rol o'ynadi. Ko'rilgan choralar natijasida erishilgan stabillashuv zaif stabillashuv bo'lib qolaverdi, iqtisodiyotni turg'unlik holatidan mutlaqo chiqarib bo'lmadi. Bu kapitalizmning chirishi va parazitlarning yaqqol ko'rinishi edi.³

Bu davrda imperialistik burjuziya va uning konservatorlar partiyasi jiddiy qiyinchiliklarga, liberallar partiyasi esa inqirozga uchradi. Ishchilar sinfi ularning baland parvoz so'zlariga ishonmaydigan bo'lib qoldi. Leyboristlar partiyasi boshliqlari o'ng qismning yordami bilan imperialistik burjuaziya ikki partiyali tizimni mustahkamlashga urindi. Konservatorlar va leyboristlardan iborat yangi ikki partiyali tizim vujudga keldi. 1923-yilda ichki siyosatda ahvol keskinlashgan edi. Ishchilar sinfi SSSRga yuborilgan Kerzon notasiga jiddiy qarshilik ko'rsatdi.⁴ 1922-yil noyabr va 1923-yil dekabrda parlament saylovlari leyboristlar mandatlarning oshib borayotganligi, konservator mandatlarning nisbatan kamayib borayotganligini ko'rsatdi. Bu esa ishchilar sinfining, saylovchilarning konservatorlardan noroziligini kuchayotganligini bildirar edi. Bunday ahvol konservatorlar va boshqa hukmron doiralarni hukumat ishini leyboristlarga topshirishga majbur etdi.⁵ 1924-yil yanvarida leyboristlar rahbari Ramzey Makdonald boshchiligidagi yangi, birinchi leyboristlar hukumati „ishchilar hukumati“ tuzildi.⁶ Bu hukumat ishchilar hukumati deb atalgan bo'lsa-da, haqiqatda imperialistik hukumat edi. V.I. Lenin aytganidek, Makdonald, „sinfiy bo'lmagan

¹ П. В. Гурович Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959. 87-л

² Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения 1924-1929, М., 1958. 281-л.

³ O'sha asarda, 89-bet.

⁴ Z.R. Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangitarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 472-bet.

⁵ O'sha joyda, 472-bet.

⁶ В. Г. Ревуненкова Новейшая история стран запада, М., 1959, 110-л.

hukumat to'g'risida xayol suruvchi g'irt burjua patsifisti va murosachisi, mayda burjua bo'lib qolaverdi''. Makdonald „tuzalmas reaksioner’’ edi.

Leyboristlar partiyasi saylov kunlarida xalqqa bergan va'dalarini qisman bajardi, xolos. Ular ishsizlikni tugatish, ish haqini oshirish, uy-joy masalasini hal qilish, SSSR bilan diplomatik aloqa o'rnatish va iqtisodiy aloqalarni tiklash, butun dunyoda tinchlik uchun kurash to'g'risida va'da bergan edilar.¹ Faqat ishchilar ommasining siquvi ostida leyboristlar hukumati uzoq muzokaralardan keyin 1924-yil 2-fevralda SSSR bilan aloqa o'rnatishga majbur bo'ldi.² 1924-yilda SSSR bilan umumiy bitim va savdo shartnomasi imzolandi. Qarilar va invalidlarga beriladigan pensiya bir oz oshirildi. Uy-joy qurilishi haqiqatda 50 yilga mo'ljallangan qonun qabul qilindi. Ammo bu qonun amalga oshirilmadi. Ishchilar ahvoli yaxshilanmadi. Leyboristlar hukumati ishchilar harakatini, mustamlakalardagi milliy ozodlik kurashini bostirish siyosatini yuritdi, Kompartiyani ishchilar harakatidan chetlatishga urindi, SSSR bilan aloqani yaxshilash o'rniga unga qarshi ig'vogarlik siyosatini davom ettirdi. Makdonald boshliq „ishchilar hukumati’’ ham Sovet hukumatidan chor Rossiyasi qarzlarini va ingliz kapitalistlarining SSSRda natsionalizatsiya qilingan sanoat korxonalari uchun kompensatsiya to'lashni surbetlarcha talab qildi. 1924-yil yozida Londonda Antanta davlatlarining Germaniyadan olinadigan reparatsiya masalasiga bag'ishlangan konfirensiyasida Makdonald hukumati boshqa imperialistik davlatlarning vakillari bilan birgalikda Sovet Ittifoqiga qarshi maqsadda Germaniyaning harbiy-iqtisodiy potensialini tiklash to'g'risida kelishib olindi va maxsus „Daues rejasi’’ni qabul qildi³. Angliya Germaniyaning harbiy-iqtisodiy qudratini tiklashda AQSHdan keyin yetakchi rol o'ynadi.

„Ishchilar hukumati’’ ning ichki va tashqi siyosati noroziliklarni kuchaytirib yubordi. Bu hukumat ishchilar harakatini to'xtata olmadi. Tred-yunionlarda „Ozchilik harakati’’ degan demokratik-progressiv oqim rivojlandi. Bu oqim ishchilarning talablarini amalga oshirish uchun kurashdi. „Ozchilik harakati’’ning qat'iy talablari natijasida tred-yunionlarning Britaniya kongressi sovet kasaba

¹ Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., <<O'qituvchi>>, 1978, 270-bet

² O'sha asarda, 110-bet.

³ O'sha asarda, 111-bet,

soyuzlari bilan yaqinlashdi va 1924-yil oxiri va 1925-yil boshida Ingliz-rus kasaba soyuzlari Komiteti tuzildi.¹ Komitet o'zaro aloqalarni mustahamlash, urush siyosatiga yo'l qo'ymaslik, bir-birlarini qo'llab-quvvatlash masalalarini asosiy vazifa qilib qo'ydi. Ish tashlash harakatini kuchaytirdi. Leyboristlar hukumati ochiqdan-ochiq korxona egalarini yoqlab chiqdi, mustamlakachilik tarafdori bo'lib ish ko'rdi. „Ishchilar hukumati“ning siyosati amalda konservatorlar hukumatining siyosatidan farq qilmadi. Ishchilarning noroziligi kuchaya bordi. O'ziga-o'zi isnod keltirgan „ishchilar hukumati“ 1924-yil noyabr boshidayoq iste'fo berishga majbur bo'ldi.² Leyboristlar hukumatining iste'fosini bevosita tezlashtirgan hodisa o'sha yilning yozida boshlangan „Kempley ishi“ deb atalgan ig'vogarlik edi.³ Kommunistik gazeta „Uokers Uikli“ning redaktori Kempbell ingliz soldatlarini ish tashlagan ishchilarga qarshi chiqarmaslikka da'vat qilib maqolalar yozgani uchun, leyboristlar hukumatining ko'rsatmasi bilan, u soldatlarni isyonga qo'zg'atmoqda, degan ayb bilan qammoqqa olindi. Tekshirishda hech qanday ayb isbotlanmadi. Keng xalq ommasining qattiq noroziligi natijasida Kempbell qamoqdan ozod etildi. Konservatorlar bundan foydalanib, Makdonald hukumatini kommunistlarga yon bosishda aybladilar va 1924-yil oktabrda hukumatga ishonchsizlik bildirdilar.⁴ Shu munosabat bilan leyboristlar iste'foga juda moyil edilar. Lekin korollarning aralashuvi bilan Makdonald hukumatni vaqtincha boshqarib turdi. U parlamentni tarqatib, 29-oktabrda yangi parlament saylovlarini o'tkazdi. Saylov oldi kompaniyasi vaqtida Kompartiyani ayblash maqsadida Makdonald tashqi ishlar ministrligiga chinovniklari tomonidan to'qilgan „Komintern xati“ degan qalbaki hujjatni e'lon qildi.⁵ Bu qalbaki hujjatda, go'yo armiya va flotda qo'zg'alon tayyorlash to'g'risida ingliz kommunistlariga direktiva berilganidek ko'rsatilgan edi. Bu xat konservatorlarga yanada qo'l keldi. Ular

¹ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения 1924-1929, М., 1958. 281-л.

² O'sha asarda.

³ П. В. Гурович Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959. 87-л.

Makdonald hukumatiga yana hujum boshladilar va mayda burjua tabaqalarini revolyutsiya bilan qo'rqitib, saylovlarda ko'p ovoz olishga muvaffaq bo'ldilar. Konservatorlar parlamentda 413 ta, leyboristlar 151 ta va liberallar 40 ta deputatlik mandatiga ega bo'ldilar.¹ 1924-yil noyabr boshida Bolduin boshchiligidagi konservatorlar hukumati tuzildi va mamlakatni 1929-yilgacha boshqardi. Ishchilar sinfining manfaatlariga qarshi yana hujum boshlandi. Birinchi yangi zarba ishchilarning ilg'or otryadi bo'lgan kon ishchilariga qarshi qaratildi.

Angliya hukmron doiralarining maqsadi – ishchilarning turmush darajasini yanada pasaytirish hisobiga sanoat egalari foydasini oshirish, ishchilarning ilg'or qismini, keyin boshqa qismlarini burjuaziyaga itoat qildirish edi. Lekin hukmron doiralar va kapitalistlar yanglishdilar. 1925-yil yozida shaxta egalari kon ishchilarining ish haqini 13% dan 48% gacha kamaytirmoqchi ekanliklarni, agar ishchilar bunga rozi bo'lsalar, 1-avgustda yoppasiga lokaut boshlashlarini e'lon qildilar.² Ammo kon ishchilari transportchilar va temiryo'lchilar bilan birgalikda, agar ish haqi kamaytiriladigan bo'lsa, 31-iyul juma kuni ish tashlamoqchi bo'ldilar. Tred-yunionlar Bosh soveti ishchilarning kayfiyatini nazarda tutib umumiy ish tashlash to'g'risida ko'rsatma berdi.³ Shundan keyin hukumat va shaxta egalari yon berishga majbur bo'ldilar. 1-avgustda lakaut bo'lmadi. Ish haqi kamaytirilmasligi uchun hukumat shaxta egalariга subsidiya beradigan bo'ldi. Biroq bu subsidiya faqat to'qqiz oyga yetar edi. Shundan keyin ko'mir sanoatida yana nizolar bo'lishi muqarrar edi. 31-iyulda ishchilar g'alabaga erishgan kun „Qizil juma“ deb ataldi.⁴ Lekin bu g'alaba mustahkam g'alaba emas edi. Hukumat va kapitalistlar kon ishchilari va boshqa sohadagi ishchilarning kuchini bo'lib yuborish uchun iqtisodiy va siyosiy qiyinchiliklardan qutilish uchun ishchilar sinfiga qarshi yanada jiddiy kurashga tayyorlandi. Angliyada maxsus shtreykbrexer tashkilotlari tuzildi, oziq-ovqat va ko'mir yig'ila boshlandi, Angliya

¹ В. Г. Ревуненкова Новейшая история стран запада, М., 1959, 110-л.

² С. А. Могилиевский, Д. П. Прицкер, В. Г. Ревуненков, С. М. Стецкевич, В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка, <<просвещение>>, М., 1967, 81-л.

³ П. В. Гурович Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959. 92-л.

⁴ O'sha asarda.

alohida okruglarga bo'lindi. 1925-yil sentabrda Kompartiya binosiga hujum qilindi va partiyaning 12 ta rahbari qamoqqa olindi. Ishchilarni aldash maqsadida ko'mir sanoatini o'rganish uchun „Korol komissiyasi“ tuzildi.¹ Komissiya ishchilarning ko'mir sanoatini milliy lashtirish to'g'risidagi talablarini rad etib, ish haqini kamaytirish to'g'risidagi shaxta egalarining talablarini ma'qulladi. Kon ishchilari qat'iy norozilik bildirdilar. Kommunistik partiya ishchilar sinfini umumiy ish tashlash uchun tayyorlanishga chaqirdi va burjuaziyaga qarshi kurashish rejasi ustida ish olib bordi. Lekin tred-yunionlar Bosh soveti va leyboristlar partiyasi liderlari umumiy ish tashlash g'oyasiga qarshi chiqdilar va tayyorgarlik tadbirlarini ko'rmadilar.

1926-yil 1-mayda ko'mir sanoatida lokaut boshlandi, konchilar bunga ish tashlash bilan javob berdilar.² Ishchilar sinfining siquvi ostida tred-yunionlar Bosh soveti ingliz ishchilarini umumiy ish tashlashga chaqirishga majbur bo'ldi. Umumiy ish tashlash 3-maydan 4-mayga o'tar kechasi boshlandi, bunda 6 millionga yaqin ishchi qatnashdi. Bu – Angliya tarixida proletariatning eng kuchli harakati bo'lib, uning qudratini yaqqol ko'rsatdi. Kommunistik partiya tashabbusi bilan „Harakat sovetlari“ tuzildi, bu sovetlar yangi, proletar revolutsion hokimiyatning kurtagiga aylana bordi.

Mamlakat iqtisodiyotining tayanch punktlari ishdan chiqdi. Temir yo'l va shahar transporti to'xtab qoldi. Hukumat politsiya, armiya va sudni ishchilarga qarshi qaratdi. Tred-yunionlar Bosh soveti umumiy ish tashlashlarning kengayib ketganidan vahimaga tushib, uni susaytirishga va to'xtatishga urindi hamda xiyonat yo'liga o'tdi, hukumat bilan yashirin muzokaralar boshlandi. 1926-yil 12-mayda, umumiy ish tashlash kuchaygan bir vaqtda Bosh sovet hukumat vakillaining noaniq va'dalarini ko'zda tutib, ishchilarga qarata murojaat qilib, ish tashlash to'xtatilsa, hukumat konchilarga yordam qilmoqchi, deb ularni ish

¹ С. А. Моглилевский, Д. П. Прицкер, В. Г. Ревуненков, С. М. Стецкевич, В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка, <<просвещение>>, М., 1967, 81-л.

² П. В. Гурович Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959. 92-л.

³ O'sha asarda.

tashlashni to'xtatishga da'vat etdi.¹ Bu chaqiriq umumiy ish tashlashning to'xtalishiga olib keldi. Lekin konchi ishchilar kurashni davom ettirdilar. 14-mayda hukumat Bosh sovetga hech qanday va'da bermaganligini bildirdi. Ko'pgina zavod va fabrika ishchilari ishga olinmadi. Kasaba soyuz opportunistlari va byurakratlari ishchilar zarariga kapitalistlar bilan bitimlar tuzdilar, ish haqi kamaytirildi.² Kam ish haqi olishga rozi bo'lgan ishchilargina ishga qabul qilindi. Kam ish haqi olishga rozi bo'lgan ishchilargina ishga qabul qilindi. Ammo ko'p ishchilar ishsiz qoldi. Konchilar esa sakkiz oy kurashni davom ettirib, dekabr o'rtalarida ish tashlashni to'xtatishga majbur bo'ldilar. Ularning ham ish haqi kamaytirildi. Ish soatlari 7 soatdan 7,5 soatga uzaytirildi. Angliyada 1926-yilgi umumiy ish tashlash xalqaro ahamiyatga ega bo'ldi. Kapitalistik mamlakatlarning ilg'or kasaba uyushmalari va ishchilari ingliz ishchilarini, xususan konchilarni qo'llab-quvvatladilar. Masalan, ular uchun yordam pullari ham uyushtirildi. Ingliz ishchilarini SSSR ishchilari, mehnatkashlari, VTSSPS jiddiy ravishda qo'llab-quvvatladilar. Sovet Ittifoqi kasaba soyuzlari ham ish tashlagan ingliz ishchilariga yordam berish uchun pul to'plash uyushtirdilar. SSSR kasaba soyuzlari 2 million so'm pulni 7-mayda Bosh sovetga yubordi, lekin Bosh sovet bu qardoshlik yordamini qabul qilmadi. Kon ishchilarining iltimosiga ko'ra, bu pul konchilarga yuborildi. 1927-yilda Ingliz-rus kasaba soyuz komiteti tarqalib ketdi. 1926-yilgi umumiy ish tashlashning yengilish sabablari: birinchidan, ingliz burjuaziyasi ishchilarga va ularning raxbarlariga qaraganda tajribali va qat'iyroq harakat qila oladigan bo'lib chiqdi; ikkinchidan, tred-yunionlarning o'ng liderlari, leyboristlar partiyasining liderlari ishchilar sinfining manfaatlariga xiyonat qildilar; uchinchidan, Kompartiya hali ommaviy partiyaga aylanmagan edi, u ishchilar sinfining ko'pchiligiga yetakchilik qila olmadi.³ 1926-yil umumiy ish tashlash – ingliz proletariati tarixidagi eng yirik voqealardan biri, ishchilar sinfining burjuaziyasi bilan siyosiy to'qnashuv bo'ldi. Bu esa Angliyada „rohat va farog'at“ davri tugab, janjallar, lakautlar va ish tashlashlar davri boshlanganidan dalolat berar edi. Qudratli kapitalistik va mislsiz murosachilik mamlakati bo'lgan Angliya

¹ К. Б. Виноградов, Девид Ллойд Джордж. М., 1970. 67-л.

² Н. Ф. Мочульский, Рабочее движение в Англии накануне второй мировой войны. М., 1968, 234-л.

³ Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangitarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 278-bet.

eng kata sotsial to'qnashuvlar maydoniga aylandi. 1926-yilgi umumiy ish tashlashning mag'lubiyatga uchrashi natijasida ichki va tashqi siyosatda reaksiya kuchaydi¹.

Ichki siyosatda 1927-yili parlament „Sanoatdagi nizolar va tred-yunionlar to'g'risida“ qonuni qabul qilindi.² Qonunda umumiy ish tashlash „qonunga xilof“ deb ko'rsatildi va ta'qiqlandi. Nizolar sanoat sanoat korxonalari doirasida hal qilinadigan bo'ldi. Tred-yunion huquqlari cheklandi. Davlat xizmatchilarining Britaniya tred-yunionlariga a'zo bo'lishi yoki ularning vakili bo'lish ta'qiqlanadi. Kasaba soyuz va leyboristlar partiyasi a'zolari ancha kamayib ketdi. Minglab kasaba soyuz aktivlari, Kompartiya a'zolari ishsiz qoldilar. Tred-yunionlarning reformistik raxbarlari bu ahvoldan sira tashvishlanmadi. Tred-yunionlar Bosh sovet kapitalistlar bilan ochiqdan-ochiq hamkorlik qilish yo'liga o'tdi. Eng yirik ingliz monopoliyasi – Imperiya ximiya trestining raxbari Alfred Mond boshchiligida 20 ta sanoat egasi Bosh sovet taklifini mamnuniyat bilan ma'qulladi.³ Milliy sanoat soveti tuzildi. bosh sovet raxbarlari har qanday qilib bo'lsa-da ish tashlashlarning oldini majburiyatini oldilar. A.Mond gruppasi kasaba soyuzlarining ba'zi huquqlarini tan oldi. Mondizm –sinfiy hamkorlikning yangi formasi, ishchilarni birjuaziyasiga yanada ko'proq bo'ysundirish harakatidir.⁴ Bu harakat kapitalistik ratsionalizatsiya va ingliz burjuaziyasi raqobat kuchini oshirish vajlari bilan ishchilarning ekspluatatsiya qilinishini kuchaytirishga qaratildi. Leyboristlar partiyasi vat red-yunionlarning o'ng qismi „Ozchilik harakati“ tarafdorlariga va Kompartiya a'zolariga qarshi kurashni kuchaytirdi: kommunistlar kasaba soyuzlarining raxbarlik vazifalaridan bo'shatila boshladi.⁵ Leyboristlarning vatred-yunionlarning liderlari SSSR kasaba soyuzlari bilan aloqani uzdilar. 1928-yili parlament konchilarning ish soatlarini 8 soatga uzaytirish to'g'risida qonun qabul qilindi, shu yili saylov reformasi o'tkazlib, 21 yoshga yetgan xotin-qizlarga saylov huquqi berildi.⁶ Bu, konservatorlarning navbatdagi parlament saylovlarida

¹ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 102-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 261-л.

³ С. А. Могилевский, Новейшая история зарубежных стран Европы и Америки (1917-1945)<< Просвещение>> М., 1967, 81-л.

⁴ П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926, М., 1959. 78-л.

⁵ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 77-л.

⁶ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения (1924-1929) М., 1958. 281-л.

g'alaba qilishni ko'zlab amalga oshirgan nayrang tadbiri, xalqqa yon berish edi. Ammo saylov reformasi hukumat olib boryotgan reaksiyon siyosatining o'zgarishini mutlaqo anglatmas edi.¹

1924-yildan boshlab boshqa kapitalistik mamlakatlardagi singari, Fransiya ham stabillashuv boshlandi. Urushda zarar ko'rgan xo'jalikni tiklash, mashina-uskunalarini yangilash, ayrim strategik qurilishlar boshlandi. 1924-1925-yillarda Fransiya sanoat mahsuloti urushdan oldingi darajadan o'zib keta boshladi.² 1925-yilda ko'mir qazib chiqarish urushdan ilgari davrga nisbatan 107%ga, po'lat quyish 102%ga yetdi. Ishlab chiqarish va kapitalning konsentratsiyalashuvi kuchaydi. Monopolistlarning foydasi ko'paydi. Lekin stabillashuv xalq ommasining ahvolini yanada yomonlashtirdi. Chunki bu stabillashuv Fransiya va uning mustamlakalaridagi xalqlarning talanishi va Germaniyadan olinayotgan reparatsiya hisobiga bo'lgan stabillashuv edi. Milliy daromad 1924-yilda 1913-yildagiga nisbatan 13% oshgan bo'lsa, soliqlar 21% ko'paydi.³ Ishchi va xizmatchilarning ish haqi kamaytirildi. Bu stabillashuv vaqtli va beqaror stabillashuv edi. Moliyaviy ahvol yomonlasha boraverdi. Sanoatning ayrim tarmoqlari (ip gazlama, jun gazlama sanoati) 1925-yilda urushdan oldingi darajasiga yetmagan edi. Qishloq xo'jaligida esa krizis davom etdi.⁴ Stabillashuv kapitalistik tuzumni mustahkamlamadi. Sinfiy qarama-qarshiliklar keskinlashdi.

Mamlakatning tashqi pozitsiyasi keskinlashib ketdi. Fransiya burjuaziyasi o'z siyosiy hukmronligini mustahkamlash uchun siyosiy kombinatsiyalar va katta tovlamachilik metodlarini ishga soldi. Radikallar „Milliy blok“ tarkibidan chiqib, nayrang ishlatdi. 1924-yil mayida navbatdagi parlament saylovi arafasida radikal va radikal-sotsialistlar partiyasi boshqa mayda, o'rta burjua va partiyalaridan (respublikachi sotsialistlar, mo'tadil antiklerikallardan), Sotsialistik partiya iborat „So'l blok“ tuzdi.⁵ Kommunistik partiya saylovida shahar va qishloq mehnatkashlarining birlashgan frontini, ishchi va dehqonlar hukumatini tuzish shiorlari bilan chiqdi. Lekin Sotsialistik partiya Kommunistik partiyaning ishchi-dehqonlar blokini tuzish to'g'risidagi takliflarini rad etdi va burjuaziya blokini

¹ Г. Поллит, Избранные статьи и речи (1918-1939) М., 1955 .34-л.

² В. Ю. Борисов, Новейшая история Франции. 1917-1964. М., 1966.45-л.

³ С. Н. Гурвич, Рабочее движения и левый блок во Франции. (1921- 1926). М., 1966. 301-л.

⁴ М. Дюкло, Мемуары. М., 1974, Т. 1.204-л.

⁵ В. Ю. Егоров, Народный фронт во Франции. Л., 1972. 81-л.

yoqlab chiqdi. Sotsialistlar ishtirokida tuzilgan „So'l blok" yetakchi partiyasi radikallar partiyasi bo'ldi. „So'l blok" saylov kompaniyasida ko'pgina demagogik va'dalar berdi (8 soatlik ish kuni joriy qilish haqidagi qonuni amalga oshirish, siyosiy amnitsiya e'lon qilish, kapitalga soliqlar solish orqali moliya ahvolini yaxshilash, SSSR bilan diplomatik munosabatlar o'rnatish va boshqalar). Saylovda bu blok g'alaba qozondi. „Milliy blok" esa mag'lubiyatga uchradi, uning Puankare boshliq hukamati iste'fo berdi. „So'l blok" hukumati tuzildi. „So'l blok" mamlakatni 1924-yil iyunidan 1926-yil iyuligacha boshqardi. O'ng radikal Gaston Dumerg prezident qilib saylandi (1924-1931).¹ „So'l blok" dastlabki davrda patsifistik-demografik dastur bilan niqoblangan edi, haqiqatda esa, u ham moliya oligarxiyasining quroli edi. Avval boshda Eduard Errio boshchilidagi radikallardan iborat tuzilgan so'l burjua hukumatini xalq ommasining qat'iy talablarini hisobga olib, „So'l blok" programmasining ba'zi moddalarini amalga oshirishga majbur bo'ldi. Chunonchi, qisman siyosiy amnitsiya e'lon qilindi, 1920-yilda ish tashlashda qatnashganligi uchun ishdan bo'shatilgan temir yo'lcilar qaytadan ishga olindi, uy-joy qurilishiga biro z mablag' ajratildi, 1924-yil oktabrida SSSRni tanib, u bilan diplomatik aloqa o'rnatildi, fransuz qo'shinlari Rurdan olib chiqib ketildi, frankning qadrini oshirish maqsadida majburiy zayomlar chiqarish to'g'risidagi qonun loyihasi parlamentga kiritildi.² Lekin Errio hukumatining mehnatkashlarga ba'zi yon berishlik siyosati monopolistik burjuaziyaga, moliya oligarxiyasiga mutlaqo yoqmadi. Moliya oligarxiyasi frankning qadrsizlanishidan manfaatdor edi. Senat majburiy zayomlar haqidagi loyihani rad etdi. Shu munosabat bilan Errio hukumati 1925-yil aprelda iste'fo berdi.³ Shundan so'ng hukumat tez-tez almashinib turdi.

„So'l blok" hukumatlari imperialistik siyosatni davom ettirdi. Errio hukumatining o'ziyoq Amerika-Angliya imperalistlari bilan til biriktirib, Germaniya militarizmining tiklanishiga imkon bergan „Daues rejasi" qabul qilishda qatnashadi. „So'l blok"ning Penleve-Brian boshliq hukumati german agressiyasini Sharqqa, SSSRga qarshi qaratishni maqsad qilib qo'ygan, Lokarno

¹ Л. П. Кожевникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959. 56-л.

² В. Ю. Егоров, История Франции. М., 1973, т. 3. 65-л.

³ С. С. Салычев, Французская социалистическая партия в период между двумя мировыми войнами. 1921-1940. М., 1973. 130-л.

bitimlarini qabul qilishda (1925) ishtirok etdi.¹ 1925-yil aprelda Fransiya Marokashdagi Rif Respublikasiga qarshi va Suriya druzlar qabilasi boshlagan, so'ngra umumiy milliy ozodlik kurashiga aylangan qo'zg'alonga qarshi mustamlakachilik,yirtqichlik urushini boshlab yubordi.²Ichki reformalar o'tkazish sohasidagi urinishlar to'xtalib qoldi. Ichki moddiy ahvol yomonlashib ketdi. Narx-navo, kvartira haqi,transport baholari oshdi. „So'l blok“ hukumatlarining ichki va tashqi siyosati ishchilar sinfining, barcha mehnatkashlarning noroziligini kuchaytirdi. Kommunistik partiya yetakchiligida 1925-yil 12- oktabrda 900 ming kishi ishtirokiga ommaviy ish tashlash bo'ldi, politsiya bilan qurolli to'qnashuv yuz berdi. Moris Tores va bir qancha kommunistlar qamoqqa olindi.³ „So'l blok“ning mavqei mutlaqo zaiflashib ketdi. Moliyaviy ahvol eng qiyin ichki siyosiy muammo bo'lib qolaverdi. Yirik bank va sanoat burjuaziyasi mehnatkashlar zimmasiga yangi yangi,favqulodda soliqlarni yuklash yo'li bilan moliyaviy krizisdan qutulishni mo'ljallandi. Lekin bunday ochiqdan-ochiq reaksiyon loyihalarni sotsialistlarning liderlari qo'llab-quvvatlab chiqishga jur'at qilolmadilar. Mamlakatda yangi revolyutsion krizis yetila boshladi. Bunday ommaviy norozilik va kurash sharoitida Sotsialistik partiya „So'l blok“dan chiqishga majbur bo'ldi. „So'l blok“tarqalib ketdi. 1926-yil iyulida Puankare boshchiligida yirik burjuaziyaning „Milliy birlik“ hukumati tuzildi.⁴ Hukumatda radikallar ishtirok etdilar.„Milliy birlik“ hukumati mamlakatni uch yil idora qildi. O'ng sotsialistlar bloklardan tashqarida bo'lsa-da, Puankare hukumatini qo'llab-quvvatlab keldi. Hukumat ishchilar sinfiga,uning tashkilotlarga qarshi kurashni kuchaytirib yubordi.Hukumatga qarshi harakat uchun jazoga tortish to'g'risida favqulodda qonun qabul qilindi. Hukumat moliya eksperimentlari komitetga tayanib, moliya reformasini o'tkazdi. Yirik kapitaldan olinadigan soliqlar juda kamaytirilib, mehnatkashlarga solinadigan to'g'ri va egri soliqlar ko'paytirildi, pensiya va ish haqi kamaytirildi, frank mustahkamlandi (urushdan ilgarigi qiymatining 5\1qismi tiklandi) natijada urushdan keyengi yillarda davlat budjetining balansi birinchi marta to'g'rilandi. Frankning qadrsizlnishidan kata

¹ В. П. Смирнов, Новейшая история Франции. 1918-1975. М., 1979. 121-л.

² Л. П. Кожевникова, Компартия Франции в борьбе за народный фронт. М., 1938. 302-л.

³ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1.

⁴ В. З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976.

zarar ko'rgan va radikallardan norozi bo'lib qolgan mayda burjuziya Puankare hukumatining moliya siyosatidan birmuncha rozi bo'ldi.

Tashqi siyosatda Sovet Ittifoqiga qarshi choralar va mustamlakachilik tartiblari kuchaytirildi. 1926-1927-yillarda Marokash va Suriyadagi milliy ozodlik harakati yovuzlarcha bostirildi.¹ Fransiya hukumati SSSRga qarshi Yevropa kapitalistik davlatlar blokini tuzishga urinib ko'rdi. U Sovet Ittifoqiga qarshi kurash maqsadida Germaniya bilan yaqinlashish siyosatini yurgizdi.

1926-yilda Fransiya-Germaniya temir yo'l va po'lat, so'ngra kaliy kartellari tuzildi.² 1927-yili Fransiya monopolistlari Germaniya monopolistlariga zayomlar berdilar, Yung planini quvvatladilar. Fransiya militaristik qonunlar qabul qilindi.³ Shovinistik va fashistik tashkilotlar aktivlashdi va polkovnik de lya Rok boshchiligidagi 1927-yilda „Jangovor krestlar“ nomli yangi harbiy-fashistik tashkilot tuzildi (Peten va de Goll fashistik tashkilotlarning yashirin a'zolari bo'lganlar).⁴ Burjua parlamentarizmining krizisi kuchaydi. „Milliy birlik“ hukumatining reaksiyon siyosati, xususan uning moliya reformasi mamlakatda sinfiy kurashni yanada keskinlashtirdi. 1926-yil 17-noyabrdayoq Kommunistik partiya va Umumiy unitary mehnat konfederatsiyasining tashabbusi bilan hukumatning reaksiyon siyosatiga qarshi „Milliy ishchi kuni“ – ommaviy namoyishlar o'tazildi.⁵ Stabillashuv davrining oxirlariga kelib ishchilar harakati jonlanib ketdi. Ish tashlash harakatlari va namoyishlar tez-tez bo'lib turdi. Yerga ijara haqining oshirib yuborilganligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini tayyorlash narxlarining pastligi va og'ir soliqlardan bezor bo'lgan dehqonlarning chiqishlari kuchaydi. Monopolistik burjuaziya mehnatkashlar ommasiga qarshi o'z pozitsiyasini mustahkamlash uchun kurashdi. O'ng burjua partiyalari reaksiya sharoitidan va mayda burjua saylovchilaridan foydalanib, 1928-yil aprelida bo'lgan navbatdagi parlament saylovida ko'pchilik o'rinni egallagan radikallar hukumatdan chetlashtirib borildi, ular esa oppozitsiyaga o'tishga majbur bo'ldilar. Puankare hukumat sostavi o'taketgan reaksiонерlar bilan to'ldirildi.

¹ Л. П. Кожевникова, Очерки рабочего движения Франции. 1917-1967. М., 1968, 21-л.

² Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

³ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945гг. М., 1986, 85-л.

⁴ З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 768-л.

⁵ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 61-л.

⁶ Z.R.Nuriddinov, G'arbmamlakatlarining eng yangitarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 278-bet

1929-yil iyuldan 1932-yil mayigacha Brian, Tarde va Laval boshchiligidagi hukumatlar mamlakatni idora qildi. „Pan-Yevropa” shiori ostida antisovet bloki tuzish siyosati kuchaydi va SSSR bilan aloqani uzishga ham urinib ko’rildi. Sovet Ittifoqiga qarshi tuhmat kompaniyasi qizitib yuborildi. Savdo aloqalari buzildi. Fransiyaga sovet tovarlari kiritilmay qo’yildi. Sovet davlatiga qarshi fitna va qo’poruvchilik ishlari uyushtirildi. Rus oq gvardiyachilarining „sanoat partiyasi” kabi tashkilotlarining SSSRdagi zararkunandalik va diversiya faoliyatini qo’llab-quvvatlardi. Ichki siyosatda ishchilar sinfi va Kompartiyaga qarshi yana hujum boshlandi. 1929-yilda yozida Kompartiya Markaziy Komiteti a’zolari qamoqqa olindi. Keng jamoatchilikning qat’iy noroziligi va talabi natijasidagina ular 1930-yil yozida qamoqdan ozod qilindi.

Ushbu davrning yirik davlatlaridan biri bu –Germaniyadir. Ushbu davlatda ham stabillashuv davri o’zgacha kechgan. Yevropaning boshqa mamlakatlari singari Germaniyada ham vaqtincha stabillashuv davri boshlandi. 1923-yil oxirida o’tazilgan pul islohoti inflatsiyani bir muncha bartaraf qildi.¹ 8 soatlik ish kuni, invalidlar va keksalarga beriladigan pensiya bekor qilindi. 1924-yil boshida harbiy holat bekor qilindi, yana parlament metodlariga o’tildi. Kompartiya oshkora ishlay boshladi. Stabillashuv kapitalizmga xos ziddiyatlarni bo’shashtirmadi, balki, chuqurlashtirdi. Germaniyani asoratga solishga va uni Sovet Ittifoqiga qarshi asosiy qurolga aylantirishga intilayotgan AQSH imperialistlari Antanta mamlakatlari bilan birgalikda „Daues rejasini” Germaniyaga qabul qildirdilar. Amerikalik Jilberg Parker reparatsiya bo’yicha bosh agent qilib tayinlandi. „Daues rejasi” ga muvofiq, AQSH Germaniyaning moliya ishlarini o’z nazoratiga oldi hamda Germaniyaning o’g’ir sanoati va harbiy sanoatini tiklash uchun mo’ljallangan uzoq muddatli zayom va kriditlarning 70% ini berdi. 1924-1929-yillarda chet eldan Germaniyaga berilgan uzoq muddatli qarz 10-15 milliard markani va qisqa muddatli qarz 6 milliard markani tashkil qiladi.² Bu esa Germaniyaning shu yillardagi reparatsiya to’lovidan ikki hissa ko’p edi. „Daues

¹Л. П. Кожевникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959. 56-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 262-л.

rejasi'' rejasi Germaniyaning milliy mustaqilligini cheklab qo'ydi.¹Bu reja ishchilar sinfiga qarshi kurash uchun nemis burjuaziyasining pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan edi. Shuningdek, u Germaniya imperializmini tiklab, uni SSSR ga qarshi yo'naltirish rejasi edi.Angliya-Amerika imperialistlari jahon bozorida nemis monopolistlarining konkurensiyaga uchramaslik uchun SSSRda boshlangan industriyalash ishini barbod qilish,SSSRni kapitalistik mamlakatlarning agrar,xom ashyo manbaiga aylantirish uchun Germaniya eksportini SSSRga ko'plab jo'natishni, „rus bozori’’dan foydalanaverishni mo'ljalladilar.² Sovet hukumati bu reja va mo'ljallarni o'z vaqtida fosh qilib tashladi. „Daues rejasi''nemis xalqini ikki yoqlama zulm, ya'nimahalliy burjuaziya va chet el imperialistlari zulmi ostiga qoldirildi.Bu rejaga muvofiq, reparaatsiya to'lovlarining yillik summasi belgilandi:Germaniya 1925-yilda 1mlrd marka miqdorda,undan keyengi yillarda tobora oshiqroq, 1929-yildan boshlab esa yiliga 2,5 milliard marka reparaatsiya to'laydigan bo'ldi.³Rejada reparaatsiyaning umumiy summasi va reparaatsiya to'lovlarining oxirgi muddati qayd etilmadi.

Germaniya reparaatsiyani tamojniya bojlari,egri soliqlar hisobiga,temir yo'l va qisman sanoatdan keladigan foydalar hisobiga to'lashi kerak edi.,„Daues rejasi'' egri va to'g'ri soliqlarni, keng iste'mol mollari narxlarini oshirishga olib keldi. Agar 1913-1914-yillarda soliqlar 4,3 milliard marka bo'lsa, 1924-1925-yillardayoq 11,3 milliard markaga yetdi.,„Daues rejasi'' Germaniya mehnatkashlarini ekspluatatsiya qilish va talashni kuchaytirdi.⁴

Kapitalizmning stabillashuvi yillarida Angliyadan ayniqsa,AQSH dan olingan qarzlar hisobiga Germaniya sanoatida ratsionalizatsiya keng avj oldi.Ishlab-chiqarish va kapital konsentratsiyasi hamda markazlashuvi yanada kuchaydi.Harbiy sanoat quvvati tiklanib bordi. Qudratli po'lat tresti,

¹ Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 103-л.

² Z.R.Nuriddinov,G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 278-bet.

³ Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 104-л.

⁴ Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 103-л.

⁵ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 262-л.

„I.G.Farbenindustri” ximiya konserni tashkil topdi.¹ 1927-1928-yillarda sanoat va tashqi savdo urushdan oldingi darajaga o'tib, Angliya va Fransiya orqada qoldirdi.² Nemis-amerika, nemis-ingliz monopoliyalarining aloqalari kengaydi. Germaniyada xususan Amerika kapitalining, ayniqsa Morgan, Rokfeller, Mellon moliya gruppalarining mavqei tobora mustahkamlandi. Stabillashuv yillarida ishchilar yanada qattiq ekspluatatsiya qilindi, sanoat korxonalarida ish protsessining jadallashuvi natijasida mayib bo'lish hodisalari ko'payib ketdi.³ Ishsizlik tugatilmadi, balki, aksincha, ishsizlar soni 2 million kishiga yetdi. Real ish haqi urushdan oldingi darajaga ham yetmadi. Ish kuni 10-12 soatga yetdi, pensiya va nafaqa yanada kamaytirildi. Ishchilar va mehnatkashlar yanada qashshoqlashdi.⁴ Mehnat bilan kapital o'rtasidagi ziddiyat kuchayib bordi. Germaniya sanoatining yuksalishi g'oyat beqaror negizda edi. Aholining xarid quvvati past darajada edi, tashqi bozorlar cheklangan edi, sanoat quvvatidan to'liq foydalanilmadi. Stabillashuv vaqtida qishloq xo'jaligi urushdan oldingi darajaga ko'tarila olmadi, ko'pdan beri davom etyotgan agrar krizis tugamadi. Dehqonlar yanada ko'proq bankirlar va sudxo'rlar asoratiga tushdi.

Germaniya imperializmi dunyoni qaytadan taqsimlash uchun jahonga hokim bo'lish uchun yangi imperialistik urushga tayyorlanish siyosatini yurgizdi.⁵ Germaniya 1925-yil oktabrida Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Polsha va Chexoslovakiya bilan birga Lokarno konfirensiyasida qatnashdi. Konfirensiyada bir qancha bitimlar, jumladan Reyn ahdnomasi imzolandi. Lokarno bitimlari SSSRga qarshi qaratilgan va Yevropada yangi urush xavfini tug'dirgan bitimlar edi.⁶ Bu konfirensiyaga qatnashgan davlatlar Germaniyaning g'arbiy chegaralarini

¹ З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 768-л.

² М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 62-л.

³ А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 55-л.

⁴ А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970, 45-л.

⁵ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатуры. М., 1961, 89-л.

⁶ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 97-л.

buzmaslik to'g'risida o'zaro kelishib oldilar, lekin ularning sharqiy chegaralari haqida hech qanday majburiyat olishmadi. Imperialistik davlatlar Germaniyani SSSRga qarshi blokka tortmoqchi bo'ldilar.¹

SSSR tinchlik va xavfsizlik uchun kurashib, Germaniyanni agressiv bloklarga kiritmaslikka intildi. SSSRning tashabbusi bilan 1925-yil 12-oktabrda savdo to'g'risida, 1926-yil 24-aprelda do'stlik va betaraflik to'g'risidagi Sovet-Germaniya shartnomalari tuzildi. Bu vaqtda Germaniya SSSR bilan munosabatlarni keskinlashtirishdan manfaatdor bo'lmay, aksincha SSSR bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Germaniya diplomatiyasi SSSR bilan yanada yaqinlashish orqali g'arb davlatlarini cho'chitishga va ularni Germaniyaga bundan keyin ham yon berishga majbur etishga intildi. Lekin Germaniya SSSR bilan aloqalarni yaxshilashga urinmadi. Germaniya Lokarno bitimlariga binoan, 1926-yil 10-sentabrda Millatlar Ittifoqiga kirdi. Germaniya imperializmi Amerika-Angliya moliya kapitalining yordami va AQSH vakili Yungning aktiv ishtiroki bilan 1929-yil fevral-avgustida reparaatsiya masalasining qayta ko'rib chiqilishiga erishdi. „Daues prejasi“ qabul qilindi va u 1930-yil yanvaridan kuchga kirdi. Bu planga muvofiq, reparaatsiya to'lovlari 20% kamaytirildi, reparaatsiyaning umumiy summasi 113,9 milliard markaga keltirilib, yillik to'lash summasi 2 milliard markagacha qilib belgilandi, to'lash muddati 59 yilga (1988) uzaytirildi. Bu reja ham Germaniyani SSSRga qarshi qo'yishga qaratilgan edi.

¹ Д. С. Давидович, Революционный кризис 1923 г. в Германии и Гамбургское восстание. М., 1963, 105-л.

I.2. Mustamlakalarni talash iqtisodiy taraqqiyotning omili sifatida.

Ushbu davrda Germaniyada ahvol tobora yomonlashib borayotgan edi. 1921-yil avgustidan e'tiboran Germaniya reparatsiya to'lay boshladi. Urushda g'alaba qilgan davlatlar – AQSH, Angliya va Fransiya Germaniya moliyasini nazorat ostiga oldilar. Bu esa Germaniyaning iqtisodiy jihatdan chet el ta'siriga tushib qolish xavfini kuchaytirdi va mamlakat moliyasiga yomon ta'sir qildi. Siyosiy vaziyat ham keskinlashdi, hukumat krizisi yuz berdi. Yirik burjuaziya va harbiy-monarxist doiralar reparatsiya to'lamaslikni talab etdilar. Germaniya hukumati reparatsiya to'lovini to'xtatishga majbur bo'ldi. 1922-yil 16-aprelda Germaniya Sovet Rossiyasi bilan Rapallo (Italiya) shartnomasini tuzdi.¹ Xalq ommasi buni ko'pdan beri talab qilib kelmoqda edi. Bu shartnomaga muvofiq, ikki mamlakat bir-birlarini tanidilar, normal diplomati va iqtisodiy aloqalar o'rnatish haqida kelishib oldilar. Rapallo shartnomasi, bir tomondan, Sovet diplomatiyasining katta g'alabasi bo'ldi, ikkinchi tomondan, Germaniyaning tashqi siyosiy mavqeini ancha mustahkamladi.²

Fransiya bilan Belgiya Germaniyaning reparatsiya to'lashidan bosh tortganligidan foydalanib, 1923-yilda 12-yanvarda Rur viloyatini okkupatsiya qildi.³ Rur havzasida Germaniya aholisining 10% yashardi, mamlakatda ishlab-chiqatiladigan po'latning 40% i, cho'yaning 70% i, ko'mirning 88% i, Rur viloyatida ishlab chiqarilardi. Okkupatsiya qilish natijasida Rurda sanoat ishlab chiqarishi zaiflashdi, ishsizlik kuchaydi, ishchilarning ish haqi kamayib ketdi. Nemis kapitalistlari va Kuno boshchiligidagi hukumat esa, bu okkupatsiyaga nisbatan „passiv qarshilik ko'rsatish“ taktikasini tutdi. Bu taktika ishchilar bilan burjuaziyani sinfiy hamjihatlikka undash, okkupantlar uchun ko'mir qazib chiqarmaslik va uni jo'natmaslik yo'li bilan qarshilik ko'rsatishdan iborat edi. Rur sanoat korxonalari va shaxta egalari davlatdan kompensatsiya oldilar, ular mutlaqo zarar ko'rmadilar. Lekin „passiv“ taktikaning butun o'g'irligi ishchilar gardaniga tushdi. Ko'pgina sanoat korxonalari yopildi. Ishsizlar soni ko'payib, qariyb 5

¹ А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 57-л.

² М. Кривогуз, Спартак и образование Коммунистической партии Германии. М., 1962, 303-л.

³ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатура. М, 1961, 91-л.

⁴ Z.R. Nuriddinov, G'arbmamlakatlarining eng yangitarixi <<O'qituvchi>> T., 1968, 166-bet.

million kishiga yetdi.¹ Qog'oz pul yanada qadrsizlandi, binobarin, inflatsiya g'oyat kuchaydi. 1923-yil yanvarida Amerikaning bir dollari 10 ming makaga teng bo'lsa, o'sha yilning iyunida 110 ming markaga, oktabrda 8 milliard markaga tenglashdi. Mehnatkashlar amalda ish haqidan mahrum bo'ldilar. 1923-yilning sentabrda malakali ishchi bir haftada 126 million marka olardi, bu pul hisobiga esa faqat ikki kun tirikchilik qilishi mumkin edi.² Mamlakat ochlik va qashshoqlik girdobida qoldi. Sovet hukumati va sovet xalqi Rurning okkupatsiya qilinganini qattiq qoraladi.³ SSSR kasaba soyuzlari Rur ishchilariga oltin hisobida 100 ming so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatdi: 160 vagon g'alla, 1400 tonna javdari bug'doy (hammasi bo'lib 500 ming pudga yaqin g'alla) va 2 paraxod oziq-ovqat yubordi.⁴ Boshqa mamlakatlarning mehnatkashlari ham nemis ishchilariga yordam berdilar. Germaniyada siyosiy vaziyat yanada keskinlasha bordi. Rur va boshqa viloyat ishchilari okkupantlarga va Germaniya hukumatiga qarshi, xalqning milliy manfaatlariga xiyonat qilgan Konrad Adenauer boshchiligidagi nemis monopolist-separatistlariga qarshi kurashdilar. Stachkalar va ochlik g'alayonlari kuchaydi. 1923-yil mayida Rur havzasida 400 ming ishchi ish tashladi.⁵ 1923-yil avgustida butun mamlakatda ish tashlashlar jiddiy siyosiy tus oldi. Ishchilar Kuno hukumatining iste'fo berishini talab qildilar va bu hukumat iste'fo berishga majbur bo'ldi. „Xalq“ partiyasining lideri Shtrezeman boshchiligidagi keng koalitsion hukumat tuzildi. Yangi hukumat „passiv qarshilik ko'rsatish“ taktikasini bekor qildi.⁶ Biroq Germaniya hukmron doiralari ishchilar harakatiga qarshi kurashda okkupantlar bilan hamkorlik qildilar, harbiy diktatura o'rnatdilar. Iqtisodiy ahvol yaxshilanmadi. 1923-yil sentabr- oktabr oylarida butun mamlakatda yana kuchli stachka harakatlari va qurolli to'qnashuvlar boshlanib ketdi. Revolyutsion vaziyat vujudga keldi. O'g'ir sanoat rivojlangan Saksoniya va Tyuringiya revolyutsion harakatining markazi bo'lib qoldi. Kompartiya va ishchilar sinfi oldida qurolli qo'zg'alon yo'li bilan siyosiy hokimiyatni qo'lga olish vazifasi turar edi.

¹ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 131-л.

² O'sha asarda

³ В. К. Фурасев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 144-л.

⁴ O'sha asarda

⁵ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 245-л.

¹Kommunistlarning tashabbusi va ishchilar ommasining qat'iy talabiga binoan, sotsial- demokratlar kommunistlar bilan birgalikda harakat qildilar. 1923-yil 11-oktabrda Saksoniyada, 16-oktabrda Tyurigiya so'l sotsial-demokratlar (ko'pchilik) va kommunistlar (ozchilik) dan iborat ishchi hukumatlari tuzildi. Sotsial- demokratlar va kommunistlar landtaglarda ko'pchilikni tashkil etganligi tufayli ishchi hukumatlari tinchlik yo'li bilan tashkil qilindi.² Lekin o'sha vaqtda Kommunistik partiya Markaziy Komitetida bo'lgan o'ng opportunist Brandler va Talgeymer revolyutsiyaning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Ishchi hukumatlari sostavidagi kommunistlar brandlerchilar ta'sirida bo'lib, ishchilarni qurollantirish choralari ko'rmadilar. So'l sotsial demokratlar esa ikki yuzlamachilik pozitsiyasini tutdilar.³

Kompartiyaning Gamburg tashkiloti sekretari Ernst Telman boshchiligidagi kommunistlarga qurolli qo'zg'alon uyushtirdilar. 23-25-oktabrda ishchilar shaxarchasi Barmbekda 300 jasur drujinachi 6 ming politsiya va soldatga qarshi 3 kun qahramonona barrikada kurashi olib bordi.⁴ Gamburg qo'zg'aloni 1923-yildagi revolyutsion yuksalishning eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Lekin brandlerchilar, sotsial-demokratlar va kasaba soyuz opportunistlarining xoinligi, ishchilar sinfi birligining bo'lmaganligi va hokazolar natijasida Gamburg qo'zg'aloni mag'lubiyatga uchradi. Reyxsver qismlari Saksoniya va Tyuringiyaga kirdi.⁵ Butun mamlakatda harbiy holat e'lon qilindi. Shunday qilib, Germaniyada revolyutsion yuksalish mag'lubiyatga uchradi. Kompartiya ta'qiqlandi va u yana yashirin sharoitda ishlashga ko'chdi. 1923-yil noyabrda fashistlar partiyasi aktivlashib, imperiya hukumatiga qarshi isyon ko'tardi. 8-9-noyabrda Myunxenda Gitler o'z

¹ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 99-л.

² Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 145-л.

³ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 247-л.

⁴ А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 56-л.

⁵ А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970, 47-л.

shturmlariga tayanib, davlat to'ntarishi qilishga urindi. U o'zini diktator deb e'lon qildi va Berlinda harbiy yurish uyushtirmoqchi bo'ldi.¹ Lekin fashistlar isyoni reyxsver qismlari tomonidan tezda bostirildi.Chunki nemis burjuaziyasi o'sha davrda mamlakatdagi o'z mavqeining zaifligi va xalqaro vaziyatni nazarda tutib oshkora fashistik diktatura o'rnatishga jur'at eta olmadi.² O'sha vaqtda ishchilar sinfi mag'lubiyatga uchraganligi sababli nemis burjuaziyasi fashistik diktatura o'rnatishga uncha muhtoj ham emas edi.1923-yili Fransiyaning ichki siyosiy va tashqi hayotida muhim voqealar bo'lib o'tdi.³ Germaniya Fransiya reparaatsiya to'lovlarini to'xtatib qo'yganligi bahonasi bilan fransuz imperialistlari hamda ularning o'taketgan reaksioner va shovinist Puankare hukumati Yevropada gegemonlik qilish uchun kurashni davom ettirdi.⁴Gegemonlikning moddiy ba'zasini yaratish maqsadida, Belgiya va Italiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan 1923-yil yanvarida Fransiya o'z qo'shinlarini Germaniyaning og'ir sanoat markazlaridan biri bo'lgan Rur viloyati va Reyn viloyatining bir qismiga kiritib, bu yerlarni bosib oldi.

Turning okkupatsiya qilinishi Germaniyada revolyutsion vaziyatni vujudga kelishini tazlashtirdi va Fransiya mehnatkashlarining ahvolini yanada og'irlashtirib, revolyutsion harakatning yuksalishiga olib keldi.Fransiyada soliqlar 20% oshirildi, narx-navo ko'tarildi, moliyaviy ahvol og'irlashdi,inflatsiya boshlandi,ya'ni muomuladagi frank haddan tashqari ko'payib, qadrsizlanib ketdi. Ishchi va xizmatchilarning real ish haqi yanada kamaydi.Yirik monopoliyalar yanada boyib, mayda korxona egalari va savdogarlar ko'plab sindi.

Fransiya ishchilar sinfi iqtisodiy va siyosiy talablar bilan maydonga chiqdi:ish tashlash va siyosiy namoyishlar tez-tez bo'lib turdi.⁵ Fransiya kommunistik partiyasi siyosiy kompaniyaga, ishchilar sinfining milliy va

¹ В. Ю. Борисов, Новейшая история Франции 1917-1964. М., 1968,261-л.

² М. Дюкло, Мемуары. М., 1974, 46-л.

internatsional kurashning birga qo'shib olib borilishiga raxbarlik qildi. Militarizm va urush xavfiga qarshi keskin kurash davom ettirildi.¹ Rurni okkupatsiya qilish jinoyat deb qaraldi. Rurni bo'shatib chiqish, SSSR bilan aloqa o'rnatish qat'iy talab qilindi. Germaniya ishchilarining revolyutsion kurashi qo'llab-quvvatlandi. Rurdagi fransuz soldatlari orasida tushunturish ishlari olib borildi. Fransuz soldatlari bilan nemis ishchilari o'rtasida birodarlashuv yuz berdi. Kommunistik partiya kurashni qiyin sharoitda davom ettirdi, M. Kashen va boshqa raxbarlar shu vaqtda qamoqqa olingan edi.² Partiya raxbarligi opportunist Frossar gruppasi qo'lga o'tgan edi. Ayrim trotskiychi elementlar ham partiyaga qarshi harakat qilmoqda edilar. Kommunistik partiya keskin siyosiy kurash natijasida Frossar va uning sheriklariga hamda trotskiychilarga zarba berdi. Kommunistik partiyaning bolsheviklashtirishda, tashkiliy va g'oyaviy jihatdan mustahkamlashda muhim qo'lga kiritildi. Antimarkistik oqimlarga qarshi kurash davom ettirildi. Ishchilarning siyosiy aktivligi o'sa bordi. <<1923-yilda Fransiya ishchilar sinfining Germaniya ishchilar sinfi bilan birdamligi fakti, -dedi M. Torez, - partiyamiz tarixining faxrli monomentlaridan biri bo'lib qoldi.³ Bu, partiya saflarini jipslashtirishga, uning ishchilar sinfi orasida obro'yini kuchaytirishga va sotsial-demokratiya ta'sirining kamayib, Kommunistik partiya ta'sirining keng yoyilishiga ancha yordam berdi>>.

Rurning okkupatsiya qilinishi va Germaniyada revolyutsion vaziyatning yetilishi AQSH va Angliya imperialistlarini bezovta qildi.⁴ Ular Yevropada o'z rolini oshirish uchun urinayotgan edilar. AQSH va uning himoyasidagi nemis burjuziyasi va hukmron doiralari Fransiya oldida taslim bo'lmadi. Moliya qiyinchiliklari natijasida Fransiya AQSHdan qarz so'rashga majbur bo'ldi. AQSH qarz berishdan oldin Rurni bo'shatib chiqishni talab qildi. Fransiyaning imperialistik agressiyasi siyosati va Rur avantyurasi mag'lubiyatga uchradi. Uning oqibatlari Fransiya uchun ancha og'ir bo'ldi. Fransiya Amerika banklariga bog'liq bo'lib qoldi.⁵ Fransiyaning xalqaro pozitsiyasi zaiflashib, Yevropadagi

¹ Ю. В. Егоров, Народный фронт во Франции. Л., 1972, 55-л.

² М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, 145-л.

³ Е. В. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 160-л.

⁴ Z.R. Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi <<O'qituvchi>> T., 1968, 168-bet.

⁵ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 133-л.

gegemonligini yo'qotdi. Fransuz yirik burjuaziyasi bundan norozi bo'ldi. Ichki siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Mehnatkashlarning ahvoli yanada mushkullashdi.¹

Angliya mustamlaka va dominionlarida imperializmi zulmi ostida ezilib kelgan xalqlarning Oktabr revolyutsiyasi ta'sirida, yosh ishchilar sinfining aktiv ishtirokida milliy ozodlik harakatlari ko'tarildi va rivojlandi. 1919-yilda Xitoyda chet el, shu jumladan ingliz imperialistlariga qarshi qaratilgan yangi tipdagi demokratik revolyutsiya boshlandi.² Mustamlakachilar jazo tadbirlariga, terrorga qaramay, 1919-1921-yillarda Irlandiyada, 1918-1922-yillarda Hindistonda, 1919-yilda Afg'onistonda, 1919-1922-yillarda Misrda va boshqa mamlakatlarda kuchli revolutsion-milliy ozodlik harakatlari avj oldi hamda Britaniya imperiyasining va mustamlakachilik sistemasining krizisi boshlandi. 1919-yilning boshida Irlandiyada yana qo'zg'alon ko'tarildi. Angliya parlamentining Irlandiya deputatlari Dublinda yig'ilishib, Irlandiya parlamentini tuzdilar, Irlandiya respublika deb e'lon qilindi. Muvaqqat hukumat va armiya tuzildi.³ Irlandiya va Angliya qo'shinlari o'rtasida jiddiy harbiy to'qnashuvlar bo'ldi va jangler boshlanib ketdi. Bu qattiq kurashning asosiy kuchi ishchi va dehqonlar bo'ldi. Milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik milliy burjuaziya kuchlari – shinfeynerlar qo'lida edi.⁴ Xalq ommasi kurashining kuchayishi, bir tomondan, ingliz hukumatini yon berishga, ikkinchi tomondan, shinfeynerlar orasida ajralishning yuz berishiga olib keldi. 1921-yilda ingliz hukumati o'ng shinfeynerlar bilan Angliya-Irlandiya bitimini imzoladi. Bitimga qurolli kurashga otlandi va uchinchi Angliya- Afg'oniston urishida o'z mustaqilligi uchun mardonavor kurashib, g'alaba qildi. Angliya Afg'onistonning mustaqilligini

¹ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 247-л.

² Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., <<O'qituvchi>>, 1978, 275-bet.

³ В. Г. Ревуненкова Новейшая история стран запада, М., 1959, 113-л.

⁴ С. А. Могилевский, Д. П. Прицкер, В. Г. Ревуненков, С. М. Стецкевич, В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка, <<просвещение>>, М., 1967, 88-л.

tanishga majbur bo'ldi. 1919 va 1921-yillarda Misrda ingliz mustamlakachilariga qarshi kata namoyishlar, ish tashlashlar, politsiya bilan to'qnashuvlar va qurolli qo'zg'olonlar bo'ldi.¹ Shahar va qishloq mehnatkashlari bu kurash va qo'zg'olonlarning asosiy kuchlari edi. 1922-yil fevralida Angliya yon berishga majbur bo'lib, Misr ustidan bo'lgan o'z protektoratini bekor qilajagini bildirdi. Misr rasman mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Lekin ingliz qo'shinlari ilgorigidek Misrda qoldirila berdi. Misr xalqi ozodlik va to'la mustaqillik uchun kurashni davom ettirdi.²

1919-1922- yillarda Turkiya va Eronda milliy ozodlik harakati, revolyutsion-demokratik kurashning yuksalishi natijasida Angliyaning bu mamlakatlardagi siyosati mag'lubiyatga uchradi. Ingliz imperialistlari va Gretsiya bosqinchilarining Turkiyadagi intervensiyasi tor-mor qilindi.³ Imperialistlarning Turkiyadagi intervensiyasi tor-mor qilindi. Imperialistlarning Turkiyada zo'rlik bilan o'rnatgan taslimchilik rejimi tugatildi. 1919-yilda Angliyaning Eron bilan imzolagan o'g'ir shartli shartnomasi ham 1921-yil fevralida bekor qilindi.⁴ Angliya Afg'onistondan tashqari, Turkiya bilan Eronning mustaqilligini ham e'torof qilishga majbur bo'ldi. Angliya o'z dominionlariga ayrim yon berishlariga majbur bo'ldi. Sharq mamlakatlarining ozodlik va mustaqillik uchun kurashda katta yutuqlarga erishishlarida yosh Sovet Respublikasining buyuk ozodlik kurashi, Sovet Rossiyasining do'stlik siyosati, ilgari bu davlatlar bilan imzolangan imperialistik talovchilik shartnomalarini bekor qilib, shu mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1921-yil fevralida Sovet-Eron, Sovet-Afg'oniston do'stlik shartnomalari, 1921-yil martida do'stlik va birodarlik

¹ Л. П. Кожевникова, Очерки рабочего движения Франции. 1917-1967. М., 1968, 21-л.

² Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

³ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 85-л.

⁴ З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 768-л.

⁵ М. Топез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 61-л.

to'g'risidagi Sovet-Turkiya shartnomasi tuzildi. Sovet-Turkiya shartnomasida bo'g'ozlar to'g'risidagi masala Qora dengiz davlatlariga tegishli masala ekanligi uqtirib o'tildi. Birinchi jahon urushi yillarida Iroq hududi Buyuk Britaniya tomonidan ishg'ol qilindi.¹ Bu hol urushdan keyin ham davom etdi. Mamlakatning barcha qismlarida ingliz mustamlaka ma'muriyati tashkil etildi. Mustamlakachilik siyosati mamlakat xo'jaligini halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Ishchi kuchi yetishmasligi oqibatida ekin maydonlarining deyarli yarmi tashlandiq holga kelib qoldi. Bu ishga yaroqli erkak aholining katta qismi dastlab Turkiya armiyasiga, keyinchalik esa ingliz mehnat korpuslariga safarbar etilganligining oqibati edi.²

Mamlakatda ocharchilik yuz berdi. Turli yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Ingliz mustamlakachi ma'murlari katta yer egalari o'z tomonlariga og'dirishga urindilar. Shu maqsadda dehqon jamoalariga qarashli yerlarni ham qabila shayxlari, diniy va dunyoviy rahnamolarga birlashtirib qo'yishdi. Biroq bu tadbir Iroqda ham milliy-ozodlik kurashini oldini ololmadi. Vatanparvar kuchlar, ya'ni milliy burjuaziya, kichik va o'rta qabilalar shayxlari, inglizlarning o'z faoliyatlariga aralashuvdan norozi bo'lgan yirik yer egalari, ruhoniylar „Mustaqillik posbonlari“ deb ataluvchi jamiyat tuzgandi. Uning rahbari savdogar Ja'far Abu Timman edi. Jamiyat Iroqqa to'la mustaqillik berishni talab etdi. Inglizlar bilan kelishuvchilar tarafdorlari esa „Iroq vasiyati“ deb ataluvchi jamiyatni tuzdilar. 1920-yilda milliy-ozodlik qo'zg'aloni boshlandi. 30-iyulda Rumeys shahrida yuz bergan qo'zg'alon umumiyroq ozodlik urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'alonchilar mamlakatning katta qismini ozod qilishga erishdilar. Buyuk Britaniya bu ozodlik urushini bostirish uchun 150 ming kishilik armiya tashladi. Bu armiya 1920-yilning noyabr oyida ozodlik urushini bostirishga musharraf bo'ldi.³ Ozodlik urushi to'lqinidan cho'chib ketgan Buyuk Britaniya ichki kuchlar madadiga har qachongidan ham kengroq tayana boshladi. Shularning yordamidagina o'z mavqeini saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda oktabr oyida Iroqning muvaqqat hukumatini tuzdi, 1921-yilning 23-avgustida esa Angliyaning

¹ Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi.T.,<<O'qituvchi>>,1978, 268-bet.

² O'sha asarda, 268-bet.

³ O'sha asarda, 269-bet.

sodiq malayi Faysal al- Xoshimni (Suriyaning sobiq qiroli) Iroq qiroli deb e'lon qilinishiga erishdi.¹ Amalda esa hokimiyat, mandate tizimi qoidasiga ko'ra, ingliz Oliy komissari qo'lida edi. 1922-yilda inglizlar Iroqqa bir og'ir shartnomani qabul qildirdilar. Unga ko'ra, Iroq hukumati xalqaro va moliyaviy masalalarini ingliz Oliy komissari maslahati bilan hal etishi zarur edi. Bundan tashqari, Iroqda ingliz qo'shinlari saqlanib turadigan bo'ldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti ingliz komissiyasi nazorati ostiga olindi. 1924-yilga kelib Buyuk Britaniya mandat tizimi yo'li bilan Iroqda to'la hukmronlikka erishdi., „Terkish petroleum“ kompaniyasini tuzib, Iroq neftini qo'lga oldi. 1927-yilda bu „Iroq petroleum kompaniyasi“ga aylantirildi. Biroq bu ozodlik kurashini to'xtata olgani yo'q. Iroq milliy partiyasi (rahbari Abu Timman), Iroq uyg'onish partiyasi (rahbari as-Sadr) boshchiligidagi Iroq xalqi ozodlik kurashini davom ettirdi.² Buning natijasida Buyuk Britaniya mustamlakachi hukumati Iroq vatanparvar kuchlariga yon bosishga majbur bo'ldi va endi mandat nazoratini bekor qilish zarur, degan xulosaga keldi.

1930-yilning 30-iyunida Buyuk Britaniya va Iroq o'rtasida 25 yillik yangi shartnoma imzolandi.³ Iroq nomidan shartnomani Bosh vazir Nuri Said imzoladi. Shartnomaga ko'ra, Buyuk Britaniya Iroq Millatlar Ligasiga kirgandan so'ng, uni mustaqil davlat, deb tan oladigan bo'ldi. Ayni paytda shartnoma Iroqni „do'stik“ va ittifoqchilik“ rishtalari bilan Buyuk Britaniyaga bog'lab qo'ydi.⁴ Chunonchi tashqi siyosatda Iroq Buyuk Britaniya bilan maslahatlashib olishga majbur edi. Iroqda ingliz harbiy bazalari saqlab qolindi. Bundan tashqari, Iroq mudofaasi masalasida Buyuk Britaniya manfaatlarini hisobga olishi zarur edi. Ayni paytda Buyuk Britaniya Iroqqa o'z maslahatchilari va ekspertlarini yuborishda monopol huquqqa ega edi.

¹ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 65-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945гг. М., 1986, 88-л.

³ Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

⁴ O'sha asarda

⁵ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения 1924-1929, М., 1958. 283-л.

1932-yil 3-oktabrda Iroq Millatlar Ligasiga qabul qilindi va shu tariqa u to'la bo'lmasa-da, davlat mustaqilligiga erishdi.¹ 1933-yilda hokimiyatga Al-G'ayloniy keldi.² Hukumat bir necha marta o'zgardi. Hech bir davlat o'z mustaqilligini oson yo'l bilan mustahkamlay olmagan. Iroq ham bundan mustasno emas. 1936-yilning 29-oktabrida Iroqda o'tkazilgan harbiy to'ntarish buning dalilidir. Bu to'ntarishga general Bakr Sidqiy rahbarlik qildi va Iroq qiroli G'ozii 1 ni hukumatni tarqatib yuborishga majbur etdi.³ Iroqning eng boy shaxslaridan biri, to'ntarishning faol ishtirokchisi Hikmat Sulaymon bosh vazir etib tayinlandi. Bakr Sidqiy esa Iroq armiyasi bosh shtabining boshlig'i lavozimini egalladi. Hikmat Sulaymon hukumati „Milliy islohotlar hukumati“ deb ataldi. Bu hukumat, hatto, davlat yerlarini yersiz dehqonlarga bo'lib berishni va'da qildi. Biroq asosan katta yer egalari, qabila shayxlari va savdogarlardan iborat parlament agrar islohot o'tkazishga yo'l bermadi.

Hikmat Sulaymon va Bakr Sidqiylar esa o'z siyosiy muxoliflarini qatag'on qilishni davom ettirdilar.⁴ Ayni paytda ular fashistlar Germaniyasi va Italiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Bunga qarshi bir qator vazirlar hukumat tarkibidan chiqdi. Shu tariqa „Milliy islohotlar“ hukumati barham topdi. Bakr Sidqiyga qarshi fitnalar uyushtirishga olib keldi. 1937-yilning avgustida Sidqiy o'ldirildi. 1939-yilning 25-dekabrda Nuri Said boshchiligida yangi hukumat tuzildi.⁵ 1939-yilning 3-aprelida qiroli G'ozii 1 halok bo'ldi (avtomobil halokatida) va uning 4 yashar o'g'li qiroli deb e'lon qilindi. Shu tariqa amalda butun hokimiyat Nuri Said qo'lida to'plandi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Iroq Germaniya bilan

¹ П. В. Гурович Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959. 92-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 265-л.

³ С. А. Могилевский, Новейшая история зарубежных стран Европы и Америки (1917-1945) <<Просвещение>> М., 1967, 87-л.

⁴ П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926, М., 1959. 178-л.

⁵ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 79-л.

diplomatik aloqasini uzdi va o'zining betarafligini e'lon qildi. Shunday bo'lsa-da, uning iqtisodiyoti amalda Buyuk Britaniyaga xizmat qildi. 1941-yilning 1-aprelida „Oltin kvadrat“ deb atalgan harbiy tashkilot (Al-G'ayloniy) davlat to'ntarishi o'tkazdi. Biroq bu hol uzoq davom etmadi. 2-may kuni Buyuk Britaniya armiyasi harbiy harakat boshladi va Iroqni to'la ishg'ol qildi, yana Buyuk Britaniyaga xayrixoh kuchlar hukumati tiklandi. 1943-yilning 17-yanvarida Iroq Germaniya va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Misr XIX-asrning 80-yillarida Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni metropoliya, xomashyo ba'zasiga aylantirdi. Mamlakatda saqlanib qolingan qirollik hokimiyati amalda Buyuk Britaniya tayanchiga aylantirildi. Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng ozodlik kurashining yangi to'lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar „Misr vakillari“ (Vadf Misri) deb atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurshni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni Saad Zag'lul boshqardi. Tashkilot Misrga mustaqillik berishni talab qildi. Bunga javoban inglizlar „Misr vakillari“ ning faoliyatini taqiqladi. S.Zag'lul Malta oroliga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qo'zg'olonining boshlanishiga turtki bo'ldi. 1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etdi. << Misr – misrliklar uchun >> shiori ostida o'tkazilgan ushbu tinch namoyish mustamlakachilar tomonidan o'qqa tutildi. Bu namoyishning qo'zg'alonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo'zg'alon katta qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zag'lul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konfirensiyasiga ham yuborildi. Biroq Zag'lul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi.

Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektorati tan olindi. Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turishi mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. Endi Buyuk Britaniya << yangi >> – sinalgan yo'lni tanladi. Bu yo'l Misrga davlat mustaqilligini berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo'li edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya 1922-

yilning 28-fevralida Misrning mustaqilligini tan oldi.¹ Misr mustaqil suveren davlat deb e'lon qilindi. Buyuk Britaniya o'zida Misr hududidagi imperiya yo'llarini qo'riqlash, Misrni chet el agressiyasidan himoya qilish, chet el manfaatlarini va kam sonli millat vakillarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Buyuk Britaniyaning yuqorida sanab o'tilgan huquqlariniqonunlashtirib qo'ydi.² Chet elliklarning barcha huquq va imtiyozlarini saqlab qolindi. 1924-yilning yanvarida Saad Zag'lul boshchiligidagi hukumat tuzildi.

Saad Zag'lul hukumati Sudan xalqining mustaqillik kurashini qo'llab-quvvatlay boshladi. Shuning uchun Buyuk Britaniya hukumati Zag'lulni hokimiyatdan chetlashishga qaror qildi.³ 1924-yilda misrlik terrorchi tomonidan Sudandagi ingliz general-gubernatorio'ldirildi. Bundan Buyuk Britaniya Misrga qarshi harbiy harakat boshlashga bahona sifatida foydalandi, Natijada Zag'lul hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilish tarafdorlaridan iborat yangi hukumat tuzildi.⁴

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Misr xalqi turmush darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.⁵ Chet el monopoliyalari mamlakatni talay boshladi. Paxtachilik qisqardi. Soliq eski holicha qoldi. Shunday bir sharoitda 1930-yilda Buyuk Britaniya Misrga yanada haqoratli yangi shartnomani qabul qildirishga urindi.⁶ Lekin Bosh vazir Naxxas podsho buni qabul qilmadi. Shundan so'ng qirol Fuad Ismoil Sidqiyni Bosh vazir qilib tayinladi. Bu hol milliy-ozodlik kurashining

¹ Z.R. Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi <<O'qituvchi>> T., 1968, 266-bet.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 331-л.

³ O'sha asarda

⁴ В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 164-л.

⁵ O'sha asarda

⁶ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 235-л.

yangi to'liqlini boshlanishiga sabab bo'ldi. Ozodlik kurashi rahbarlariga qarshi repressiyani kuchaytirish maqsadida Misr hukumati 1930-yilning oktabrida 1923-yilgi Konstitutsiyani bekor qildi va parlamentning huquqlarini cheklovchi yangi Konstitutsiyani amalga kiritdi.¹ 1934-yilda mamlakatda g'alla yetishtiruvchilar manfaatini himoya qilish maqsadida import g'allaga boj to'lovini oshirdi. Bu esa nonning narxini oshirib yubordi, mamlakatda kuchli namoyishlar va ish tashlashlar yuz berishiga olib keldi.² Shunday sharoitida Buyuk Britaniya yangi siyosiy vaziyatga mos yo'l tanlashga majbur bo'ldi. Uning ko'rsatmasi bilan 1935-yilning dekabrda 1923-yil Konstitutsiyasi qayta tiklandi.³ 1936-yilning avgustida Buyuk Britaniya Misrni o'zi uchun qulay shartnoma imzolashga majbur etdi. Shartnomaga, Misrdagi ingliz Oliy komissari endilikda elchi deb ataladigan bo'ldi. Nomiga bo'lsa-da, ingliz okkupatsiya rejimi bekor qilindi. Biroq shartnoma Buyuk Britaniyaga Suvaysh kanali zonasini, Qohira va Aleksandriya shaharlarida o'z armiyasini saqlash huquqini berdi.

Bundan tashqari, ingliz sarmoyadorlari Misr hududi ustida uchish, Misr aerodromlariga qo'nish huquqiga ega bo'ldi. Armiya ingliz harbiy missiyasi nazoratiga olindi. Shuningdek, urush harakatlari boshlansa, Buyuk Britaniya Misr hududidan tayanch sifatida foydalana olardi. Shu tariqa, 1936-yilgi ingliz-misr shartnomasi amalda ingliz hukmronligini saqlab qoldi.⁴ 1939-yilda Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Misr Buyuk Britaniya tomonida turishini ma'lum qildi. 2-sentabr kuni Misr hukumati mamlakatda harbiy holat e'lon qildi. Mamlakat iqtisodiyoti Buyuk Britaniya manfaati uchun xizmat qila boshladi. Qirol Faruh

¹ Л. П. Кожевникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959. 156-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 362-л.

³ Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 203-л.

⁴ Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 178-bet.

boshchiligidagi siyosiy kuchlar guruhi Germaniya va Italiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Ikkinchi jahon urushi boshlarida Italiya armiyasi Misr hududlariga ham bostirib kirdi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. Ingliz armiyasi 1941-yilning boshlarida Italiya qo'shinlarini Misrdan surib chiqardi.¹ 1942-yilda fashistlar Germaniyasi agentyurasi Misrda davlat to'ntarishini tayyorlashga kirishdi. Bungay yo'l qo'ymaslik uchun qirol saroyini ingliz armiyasi egalladi va Buyuk Britaniya tarafdori bo'lgan hukumat tuzildi. 1943-yilning may oyiga kelib butun shimoliy rayon nemis-italyan qo'shinidan tozalandi.² 1945-yilning fevral oyida Misr Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildi. Bu Misrga Birlashgan Millatlar ta'sis konfrentsiyasida qatnashish huquqini berdi.³

Yuqorida ta'kidlanganidek, XX asr boshlarida ham Jazoir Fransiya mustamlakasi zulmi ostida edi. (Fransiya Jazoirni 1830-yildayoq bosib olgan edi.) Birinchi jahon urushi yillarida Jazoir iqtisodiyoti Fransiya manfaatiga xizmat qildirildi.⁴ Fransiya armiyasi saflariga chaqirilgan jazoirliklardan front orti ishlarida foydalanilgan. Urush Fransiyaning qiyin ahvolga solib qo'ydi. Bunday sharoitda mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashito'loqini pasaytirish nihoyatda muhim edi. Shu maqsadda metropoliya hukumati 1919-yilda Jazoir uchun alohida dekret chiqardi.⁵ Unga ko'ra, soliq masalasida fransuzlar va jazoirliklar o'rtasida mavjud notenglik tugatildi. Dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, harbiy xizmatchilar va davlat organlari, amaldorlarga mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovda qatnashish huquqi berildi. Biroq dekret jazoirliklarning boshqa masalalardagi huquqsizligiga daxl qilmadi. Jazoir xalqi milliy-ozodlik kurashini hech qachon to'xtatgan emas. 1920-yilda Jazoir vatavparvarlari „Yosh jazoirliklar“ partiyasini tuzdilar.⁶ Partiyaga Jazoir xalqining qahramoni Abdulqodirning nabirasi Amir Holid rahbarlik qildi.

¹ В. П. Смирнов, Новейшая история Франции. 1918-1975. М., 1979. 127-л.

² Л. П. Кожевникова, Компартия Франции в борьбе за народный фронт. М., 1938. 342-л.

³ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 165-л.

⁴ В. З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 192-л.

Partiya jazoirliklar huquqini fransuzlar huquqiga tenglashtirishni, irqiy kamsitishni tugatishni, mahalliy aholidan Fransiya parlamenti deputatlar saylanishiga ruxsat etilishini, matbuot va uyushmalarga birlashish kabi erkinliklar berilishini talab etdi. 1927-yilda „Saylangan musulmonlar federatsiyasi“ tshkiloti hamda „Jazoir ulamolari ittifoqi“ tashkil topdi va mustaqillik uchun kurashdi. 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Jazoir iqtisodiyotiga katta talofat yetkazdi. Bu esa xalqning turmush darajasi yanada yomonlashuviga olib keldi. Buning ustiga to'rt yil davom etgan qurg'oqchilik oqibatida chorva mollarining 80% i qirilib ketdi. 1936-yilda Fransiya hokimiyat tepasiga kelgan Xalq fronti hukumati mustamlakachilik tartibini yumshatishga qaratilgan qator o'zgarishlar joriy etdi. Tez orada Jazoir xalqlarining milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi barcha kuchlarning umumjazoir yig'ini – Musulmon Kongressi chaqirildi. Kongress Xalq frontini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Ayni paytda Kongress „Milliy Xartiya“ deb atalgan hujjat qabul qildi. Bu hujjatda mustamlakachilar joriy etgan, jazoirliklarni tahqirlovchi „yerli aholi kodeksi“ ni bekor qilish talab etilgan edi. 1940-yilda Fransiya taslim bo'lgach, Jazoir amalda fashistlarga qaram bo'ldi. Bu hol milliy burjuaziya orasida bo'linish yuz berishiga olib keldi. Uning bir qismi Germaniya bilan, katta qismi esa AQSH bilan hamkorlik qilish tarafdori edi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. 1942-yil noyabrida Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz –amerika qo'shinlari nemis-italyan qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Fashist qo'shinlari Jazoirdan ham quvib chiqarildi. Lekin bu hodisa Jazoir mustamlaka zulmidan ozod etmadi. U Fransiya mustamlakasi bo'lib qolaverdi. Birinchi jahon urushi oxirigacha ham Marokashning katta qismi hali mustamlakachilar tomonidan amalda bosib olinmagam edi. Mamlakatning xuddi shu ozod qismida bo'ysunmas qabilalarning o'z davlatlari mustaqilligini saqlab qolish yo'lidagi kurashi boshlandi.

1920-yilda Ispaniya Marokashning Rif viloyatini bosib olish niyatida hujum uyushtirdi.¹ Ispan bosqinchilariga qarshi kurashga Muhammad Abdul Karim boshchilik qildi. 1921-yilning iyulida rifliklar ispan qo'shinlarini tor-mor etdilar. Sentabr boshlarida Rif Respublikasining tuzilganligi e'lon qilindi. Abdul Karim

¹ А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 55-л.

Respublika prezidenti lavozimini egalladi. Bundan Marokashning bir qismini bosib olgan Fransiya mustamlakachilari tashvishga tushib qoldilar. Ular qo'zg'alon fransuz mustamlaka hududlariga ham tarqalib ketishidan qo'rqdilar. Endi Fransiya Rif Respublikasini tugatish payiga tushdi.¹ Shu maqsadda 1924-yilning yozida unga hujum qildi. Biroq Fransiya o'zi rejalashtirgan oson g'alabaga erisha olmadi. Endi u Ispaniya bilan birgalikda Rif Respublikasini qonga botirishga kirishdi. 1925-yilning sentabrida bu ikki davlat armiyasi birgalikda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshladi. Urush harakatlari 1926-yilning may oyigacha davom etdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu urushda Rif Respublikasi armiyasi yengildi.² Abdul Karim asirga olindi. Shundan keyin ham qurolli qarshilik ko'rsatish to'xtamadi va 1934-yilgacha davom etdi. 1934-yilda Marokash milliy burjuaziyasi va ziyolilari <<Mag'ribchilar bloki>> deb ataluvchi siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot Marokash sultoni hokimiyatini kengaytirishni talab qildi. Biroq mustamlakachilar bu talabni rad etdilar. 1937-yilda esa tashkilot faoliyati ta'qiqlandi. Ispaniya Marokashida Franko diktaturasi o'rnatildi. 1940-yilda Fransiya Germaniya tomonidan tor-mor etilgach, Fransiya Marokashi Vishi hukumati nazorati ostiga o'tdi. Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz-amerika qo'shinlari fashistlar qo'shinlarini tor-mor etgach, Marokashda Fransiya mustamlakachilik tartibi saqlanib qolaverdi.

XX asr boshlarida Tunis ham Fransiya mustamlakasi edi. To'g'ri, mamlakatni nomiga bo'lsa-da, Tunis biyi boshqarar edi. Vatanparvar kuchlar 1920-yilda <<Dastur>> (Konstitutsiya) deb atalgan partiya tuzdilar. Unda milliy burjuaziya yetakchi mavqega ega bo'ldi. <<Dastur>> Parij tinchlik konfirensiyasi Fransiyani Tunisda keng islohotlar o'tkazishga majbur etadi, deb umid qilardi. Shu maqsadda u o'z delegatsiyasini 1920-yilda Parijga yubordi. Biroq bu umid puchga chiqdi. Tez orada <<Dastur>> mamlakatda juda katta obro' qozona boshladi. Hatto, Tunis biyi ham uning talablariga qarshi chiqmadi. Oxir-oqibatda Fransiya yon berishga majbur bo'ldi. 1922-yilning iyul oyida Fransiya hukumati Tunisda Konstitutiaviy islohotlar o'tkazish haqida dekret chiqarishga majbur bo'ldi. Unga

¹ Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., <<O'qituvchi>>, 1978, 270-bet.

² O'sha asarda.

ko'ra, Tunisda Katta Kengash (parlament) tuzilishiga ruxsat etildi. Biroq unda fransuzlarning vakillari ko'pchilikni tashkil etishi belgilab qo'yildi. <<Dastur>> a'zolarining bir qismi bunga rozi bo'lsa-da, advokat Habib Burg'iba boshchiligidagi guruh undan norozi bo'ldi. Bu guruh 1934-yilda <<Yngi dastur>> partiyasiga birlashdi. Tez orada partiya raxbarlari hibsga olindi. 1936-yilda Fransiyada Xalq frontining hokimiyat tepasiga kelishi mustaqil mamlakatlardagi siyosiy partiyalarning ochiq faoliyat ko'rsatishiga imkon tug'dirdi. Butun mamlakatni namoyish qoplab oldi. Namoyishchilar Tunisga mustaqillik talab etdilar. Ayni paytda <<Yangi dasur>> partiyasining obro'si oshib bordi. Bu narsa Fransiya mustamlakachilarini cho'chitib yubordi. 1938-yil aprelida namoyishchilarga qarshi tanklar tashlandi. <<Yangi dastur>> rahbarlari hibsga olindi va partiya faoliyati ta'qiqlandi.

II.1. 1-Jahon urushida g`olib davlatlar iqtisodiyotida AQSH ta`siri.

Nemis burjuaziyasi proletariatning revolyutsion harakatini bostirib, o`zining iqtisodiy va siyosiy mavqeini vaqtincha mustahkamlab oldi. Ishchilar sinfi, mehnatkash dehqonlar va shahar mayda burjuaziyasini haddan tashqari talash hamda chet el imperialistlaridan yordam olish yo`li bilan Germaniya kapitalizmining vaqtincha stabillashuvi boshlandi.¹ 1923-yil oxirida o`tkazilgan pul reformasi inflatsiyani bir muncha bartaraf qildi. 8 soatlik ish kuni, invalidlar va keksalarga beriladigan pensiya bekor qilindi.<sup>2</sup> 1924-yil boshida harbiy holat yo`qotilib, yana parlament metodlariga o`tildi.<sup>3</sup> Kompartiya oshkora ishlay boshladi. Stabillashuv kapitalizmga xos ziddiyatlarni bo`shashtirmadi, balki, aksincha, chuqurlashtirdi.

Germaniyani asoratga solishga va uni Sovet Ittifoqiga qarshi asosiy qurolga aylantirishga intilayotgan AQSH imperialistlari Antanta mamlakatlari bilan birgalikda „Daues rejasi“ ni Germaniyaga qabul qildilar.⁴ (Bu reja 1924-yil avgustda London konfereitsiyasida qabul qilingan edi.) Amerikalik Jilberg Parkar reparatsiya bo`yicha bosh agent qilib tayinlandi. „Daues rejasi“ ga muvofiq, AQSH Germaniyaning moliya ishlarini o`z nazoratiga oldi hamda Germaniyaning og`ir sanoati va harbiy sanoatini tiklash uchun mo`ljallangan uzoq muddatli zayom va kreditlarning 70% ini berdi.⁵ 1924-1929-yillarda chet eldan Germaniyaga berilgan

¹ Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 155-л.

² O`sha asrda

³ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 217-л. ¹ В.Г.Ревуненков, <<Новейшая История Стран Запада>>, М., 1959, 348-л.

⁴ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 261-л.

⁵ С. А. Могилевский, Новейшая история зарубежных стран Европы и Америки (1917-1945) <<Просвещение>> М., 1967, 81-л.

⁶ П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926, М., 1959. 78-л.

⁷ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 77-л.

uzoq muddatli qarz 10-15 milliard markani va qisqa muddatli qarz 6 milliard markani tashkil qildi.¹ Bu esa Germaniyaning shu yillardagi reparaatsiya to'lovlaridan ikki hissa ko'p edi. „Daues rejasi“ Germaniyaning milliy mustaqilligini cheklab qo'ydi. Bu reja ishchilar sinfiga qarshi kurash uchun nemis burjuaziyasining pozitsiyasini mustahkamlashga qaratilgan edi.² Shuningdek, u Germaniya imperializmini tiklab, uni SSSRga qarshi yo'naltirish rejasi edi. Angliya –Amerika imperialistlari jahon bozorida nemis monopolistlarining konkurensiyasiga uchramaslik uchun SSSRga boshlangan industriyalash ishini barbod qilish, SSSRni kapitalistik mamlakatlarning agrar, xomashyo manbaiga aylantirish uchun Germaniya eksportini SSSRga ko'plab jo'natishni, „rus bozori“ dan foydalanaverishni mo'ljalladilar. Sovet hukumati bu reja va mo'ljallarni o'z vaqtida fosh qilib tashladi.³

„Daues rejasi“ nemis xalqini ikki yoqlama zulm, ya'ni mahalliy burjuaziya va chet el imperialistlari zulmi ostida qoldirdi. Bu rejaga binoan, reparaatsiya to'lovlarining yillik summasi belgilandi: Germaniya 1925-yilda 1 milliard marka miqdorida, undan keyingi yillarda tobora oshiqroq, 1929-yildan boshlab esa yiliga 2,5 milliard marka reparaatsiya to'laydigan bo'ldi.⁴ Rejada reparaatsiyaning umumiy summasi va reparaatsiya to'lovlarining oxirgi muddati qayd etilmadi.

Germaniya reparaatsiyalarni bojxona bojlari, egri soliqlar hisobiga, temir yo'l va qisman sanoatdan keladigan foydalar hisobiga to'lashi kerak edi.⁵ „Daues rejasi“ egri va to'g'ri soliqlarni, keng iste'mol mollari narxlarini oshirishga olib keldi. Agar 1913-1914-yillarda 4,3 milliard marka bo'lsa, 1924-1925-yillardayoq

¹ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 77-л.

² Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения (1924-1929) М., 1958. 281-л.

³ В. Е. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 167-л.

⁴ И. Р. Григорев, Уильям З. Фостер. М., 1975, 121-л.

11,3 milliard markaga yetdi.¹ „Daues rejasi“ Germaniya mehnatkashlarini ekspluatatsiya qilish va talashni kuchaytirdi. Kapitalizmning stabillashuvi yillarida Angliyadan, ayniqsa AQSHdan olingan qarzlari hisobiga Germaniya sanoatida ratsionalizatsiya keng avj oldi.² Ishlab chiqarish va kapital konsentratsiyasi hamda markazlashuvi yanada kuchaydi. Harbiy sanoat quvvati tiklanib bordi. Qudratli po'lat tresti, „I.G.Farbenindustri“ ximiya konserni tashkil topdi. 1927-1928-yillarda sanoat va tashqi savdo urushdan oldingi darajadan o'tib, Angliya va Fransiya orqada qoldirdi.³ Nemis-amerika, nemis-ingliz monopoliyalarining aloqalari kengaydi. Germaniyada xususan Amerika kapitalining, ayniqsa Morgan, Rokfeller, Mellon moliya guruhlarining mavqei tobora mustahkamlandi. Stabillashuv yillarida ishchilar yanada qattiq ekspluatatsiya qilindi, sanoat korxonalari ish unumini jadallashuvi natijasida mayib bo'lish hodisalari ko'payib ketdi. Ishsizlik tugatilmadi, balki, aksincha, ishsizlar soni 2 million kishiga yetdi. Real ish haqi urushdan ilgari darajaga ham yetmadi.⁴ Ish kuni 10-12 soatga yetdi, pensiya va nafaqa yanada kamaytirildi. Ishchilar va mehnatkashlar yanada qashshoqlashdi. Mehnat bilan kapital o'rtasida ziddiyat kuchayib bordi. Germaniyaning sanoatining yuksalishi g'oyat barqaror negizda edi. Aholining xarid quvvati past darajada edi, tashqi bozorlar cheklangan edi, sanoat quvvatidan to'liq foydalanilmadi.⁵ Stabillashuv vaqtida qishloq xo'jaligi urushdan oldingi darajaga ko'tarila olmadi, ko'pdan beri davom etayotgan agrar krizis tugamadi. Dehqonlar yanada ko'proq bankirlar va sudxo'rlar asoratiga tushdi. Germaniya imperializmi dunyoni qaytadan taqsimlash uchun, jahonga hokim bo'lish uchun yangi imperialistik urushga tayyorlanish siyosatini turgizdi. Germaniya 1925-yil oktabrda Angliya, Fransiya, Italiya, Belgiya, Polsha va Chexoslovakiya bilan birga Lokarno (Shveysariya) konfirensiyasida qatnashdi. Konfirensiyada bir qancha bitimlar, jumladan Reyn ahdnomasi imzolandi. Lokarno bitimlari SSSRga qarshi qaratilgan va Yevropada yangi urush xavfini tug'dirgan bitimlar edi.⁶ Bu konfirensiyaga qatnashgan davlatlar Germaniyaning g'arbiy

¹ И. Л. Зубок, Н. Н. Яковлев, Новейшая история США. М., 1972, 215-л.

² Б. Я. Михайлов, Очерки новой и новейшей время США. М., 1960, 162-л.

³ П. С. Петров, Возникновение Коммунистической партии США и ее борьба за легализацию. М., 1971, 118-л.

⁴ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 97-л.

chegaralarini buzmaslik to'g'risida o'zaro kelishib oldilar, lekin ular sharqiy chegaralari haqida hech qanday majburiyat olinmadi. Imperialistik davlatlar Germaniyani SSSRga qarshi blokka tortmoqchi bo'ldilar. SSSR tinchlik va xavfsizlik uchun kurashib, Germaniyani agressiv bloklarga kiritmaslikka intildi. SSSRning tashabbusi bilan 1925-yil 12-oktabrda savdo to'g'risida, 1926-yil 24-aprelda do'stlik va betaraflik to'g'risida Sovet-Germaniya shartnomalari tuzildi. Bu vaqtda Germaniya SSSR bilan iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishdan manfaatdor edi. Germaniya diplomatiyasi SSSR bilan yanada yaqinlashish orqali g'arb davlatlarini cho'chitishga va ularni Germaniyaga bundan keyin ham yon berishga majbur etishga intildi. Lekin Germaniya SSSR bilan aloqalarni yaxshilashga urinmadi.

Germaniya Lokarno bitimlariga binoan, 1926-yil 10-sentabrda Millatlar Ittifoqiga kirdi. Germaniya imperializmi Amerika-Angliya moliya kapitalining yordami va AQSH vakili Yungning aktiv ishtiroki bilan 1929-yil fevral-avgustida reparatsiya masalasining qayta ko'rib chiqilishiga erishdi. „Daues rejasi“ o'rniga yangi, „Yung rejasi“ qabul qilindi va u 1930-yil yanvarda kuchga kirdi. Bu rejaga muvofiq, reparatsiya to'lovlari 20% kamaytirildi, reparatsiyaning umumiy summasi 113,9 milliard markaga keltirilib, yillik to'lash summasi 2 milliard markagacha qilib belgilandi, to'lash muddati 59 yilga (1988-yilgacha) uzaytirildi. Antantaning Germaniya iqtisodiyoti ustidan nazorati batamom tugatildi. Bu reja ham Germaniyani SSSR ga qarshi qo'yishga qaratilgan edi. AQSH Bazeldagi (Shveytsariya) xalqaro hisob-kitob banki orqali Germaniyaning og'ir sanoatini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatladi. German sanoati reparatsiya to'lovlaridan ozod etildi. Bu to'lovlarning og'irligi yanada ko'proq mehnatkashlar zimmasiga yuklandi. 1930-yilda Antanta qo'shinlari Reyn viloyatidan olib chiqib ketildi.

Yevropaning buyuk davlatlaridan biri Buyuk Britaniya ham Germaniyani qo'llab-quvvatlashdan manfaatdor edi. Angliya tashqi siyosatda Sovet Ittifoqiga qarshi agressiv siyosatni kuchaytirdi. Konservatorlar hukumati 1924-yilda SSSR bilan tuzilgan umumiy va savdo shartnomalarini tanimadi va tasdiqlamadi. U Germaniya ishtirokida antisovet ittifoq tuzishga urindi. Konservatorlar hukumati 1925-yil oktabrida Lokarno bitimlarini tuzishda, Germaniya agressiyasini Shaqqa

qaratish uchun zamin hozirlashda faol qatnashdi. Angliya „Daues rejasi“ga ko'ra, Germaniya habiy sanoatining tiklanishida katta yordam qilib turdi va yangi, „Yung rejasi“ni qabul qilishda qatnashdi. Kapitalistik mamlakatlar o'rtasidagi ziddiyatlar bilan bog'liq bo'lgan asosiy masalalardan biri – Germaniyadan olinadigan reparatsiya to'lovlari masalasi edi. Reparatsiyaning umumiy summasi 1921-yili 132 milliard oltin marka qilib belgilangan bo'lsa-da, lekin uni qanday undirib olish yo'llari belgilanmagan edi hamda Yevropoda gegemonlik masalasida Angliya bilan Fransiya o'rtasidagi jahon bozorlari masalasida Angliya bilan Amerika o'rtasidagi ziddiyatlarga reparatsiya masalasidagi ziddiyat qo'shildi.¹ Bu davlatlar reparatsiya masalasini o'z foydalariga hal qilishga urinardilar. Umuman, patsifizm niqobi ostida xalqaro ziddiyatlar tobora kuchayib bormoqda edi. Germaniya bu ziddiyatlardan foydalanib reparatsiya to'lamay qo'ydi. 1923-yil yanvarning boshida Parijda chaqirilgan yangi xalqaro konfirensiyada Angliya Germaniyaning reparatsiya to'lovlarini 4 yilga kechiktirish va reparatsiyaning umumiy summasini kamaytirib 50 milliard marka miqdorida belgilashni (<<Bonar Lou rejasi>>ni) taklif qildi.² Fransiya bu takliflarni rad qildi va hech qanday bitimga kelinmadi. Fransiya bu masalada o'zboshimchalik bilan harakat qildi. Reparatsiya komissiyasi a'zolari ko'pchiligining roziligi bilan 1923-yil 11-yanvarda Fransiyada va Belgiya qo'shinlari Germaniyaning Rur viloyatini ishg'ol qildilar.³ Natijada Fransiya bilan Germaniya o'rtasidagi ziddiyat keskinlashib ketdi. Sovet hukumati german xalqining manfaatlarini himoya qilib, bu bosqinchilikka jiddiy norozilik bildirdi.⁴ Yevropada gegemonlik pozitsiyasini egallash uchun Fransiya- Angliya, Fransiya-AQSH, Angliya-AQSH ziddiyatlari ham kuchaydi. Fransiya o'z boshchiligida Fransiya-Germaniya ko'mir sindikatini tuzish yoki Bavariya va Reyn o'lkalari bo'yidagi separatistik harakatlarni qo'llab-

¹ Д. Волков, Англо-советские отношения (1924-1929) М., 1958.290-л.

² В. Е. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 147-л.

³ И. Р. Григорев, Уильям З. Фостер. М., 1975, 131-л.

⁴ И. Коплениг, Избранные произведения. М., 1963, 134-л.

quvvatlash yo'li bilan ham Germaniyada o'z pozitsiyasini mustahkamlashga urinib ko'rdi. Biroq Germaniyada sinfiy kurashning keskinlashuvi va ravolyutsion vaziyatning yetilishi xalqaro imperialistik burjuaziyani qo'rqitib qo'ydi, chunki g'olibona revolyutsiya imperialistlarning Germaniya haqidagi rejalarini chippakka chiqarar edi. AQSH va Angliya hukumatlari Fransiya –Germaniya janjaliga ochiqdan – ochiq aralashishga majbur bo'ldilar va raparatsiya ishini o'z qo'llariga oldilar. 1923-yil noyabrida Amerika imperialistlarining vakili – banker Charlz Daues boshchiligidagi reparatsiya masalasida Ekspertlar komiteti tuzildi.¹ Komitet 1924-yil yanvaridan – aprelegacha ishladi. Yangi reparatsion reja „Daues rejasi“ ishlab chiqildi. Bu reja 1924-yil iyul – avgust London konfirensiyasida ma'qullandi va Germaniya hukumati tomonidan ham qabul qilindi.² Fransiya va Belgiya qo'shinlari 1925-yil yozida Rurdan olib chiqib ketildi. Shunday qilib, imperialistik davlatlar Germaniya (reparatsiya) masalasida vaqtincha til biriktirib oldilar. Daues rejasiga muvofiq, Germaniya 1925-yildan 1929-yilgacha har yili reparatsiya to'lovini 1 milliard markadan 2,5 milliard markagacha oshirib borib, 1929-yildan keyin har yili 2,5 milliard marka to'lash majburiyati yuklandi.³

Daues rejasi nemis xalqini yanada og'ir ahvolga solgan talovchilik rejasi edi. Daues rejasi Germaniya iqtisodiyotida ayniqsa Amerika monopolistlari va bankirlarining hukmron bo'lishini ta'minlashga, reparatsiyani undirib olishga, SSSRning industriyalash rejasini barbod qilishga, SSSRni imperialistlarning bozoriga va xom ashyo manbaiga aylanirishga, Germaniyaning iqtisodiy-harbiy quvvatini tiklab, uni SSSRga qarshi yo'naltirishga qaratilgan edi.⁴ <<Xalqaro kapital , - deyiladi RKP (b) Markaziy Komitetning 1925-yil oktabr Plenumining rezolyutsiyasida, - tashqi savdo vositasi bilan bizga o'z shartini majburan qabul ettirishga harakat qiladi, mamlakatimizni qullikka solib, o'z mustamlakasiga

¹ И. Л. Зубок, Н. Н. Яковлев, Новейшая история США. М., 1972, 315-л.

² Б. Я. Михайлов, Очерки новой и новейшей время США. М., 1960, 122-л.

³ П. С. Петров, Возникновение Коммунистической партии США и ее борьба за легализацию. М., 1971, 218-л.

⁴ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 99-л.

⁵ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения 1924-1929. М., 1958, 392-л.

⁶ <<КПСС резолюцияларида>>, II-кисм, 199-бет.

aylantirishga urinmoqda va urinadi>>.¹ Daues rejasining imperialistik va antisovet mohiyati VKP (b) ning XIV (1925-yil dekabr) syezdi tomonidan fosh etildi. Imperialistlarning buzuvchi niyatlari va to'sqinlik qilishiga qaramay, Sovet mamlakatining industrialash siyosati amalga oshirildi.

1924-yilgi London konfrentsiyasidan so'ng Yevropa siyosatidagi g'egemonlik Fransiyadan Angliyaga, amalda esa, Daues rejasi tufayli AQSHga o'tdi.² AQSH dunyoni moliyaviy tomondan ekspluatatsiya qilish markazi bo'lib qoldi. Germaniya 1924-1929-yillarda chet ellardan, asosan, AQSH va Angliyadan 21 milliard markadan ortiq uzoq va qisqa muddatli kredit oldi.³ Amerika monopolistlarining vakili Jilbert Parker reparatsiya ishi bo'yicha bosh agent qilib tayinladi. U amalda Germaniyaning iqtisodiy diktatori bo'lib qoldi. Lekin Fransiya o'z pozitsiyasini birdaniga boshqa davlatlarga topshirib qo'ya qolmadi. Shuningdek, Angliya AQSHning o'sib borayotgan roliga beparvo qarab turmadi. Fransiya-Angliya, ayniqsa Amerika-Angliya ziddiyatlari keskinlashib boraverdi. Shu bilan birga, SSSRning mustahkamlanib borishi, xalqaro mavqei va ta'sirining kuchayishi barcha kapitalistik mamlakatlarni zo'r tashvishga solmoqda edi.

1928-yilga kelib Germaniya iqtisodiy jihatdan ancha tiklanib, Versal shartnomasiva Daues rejasi tomonidan cheklanganligiga e'tiroz bildirdi.⁴ 1928-yil kuzida Germaniya hukumati g'arbiy davlatlar qo'shinlarining Reyn zonasini evakuatsiya qilishini va Daues rejasini qayta ko'rib chiqishni talab etdi. AQSH Germaniyaning bu talablarini qo'llab-quvvatladi.⁵ AQSHning tashabbusi bilan amerikalik bankir Ouen Yung boshchiligida AQSH, Angliya, Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya moliya ekspertlari komiteti 1929-yilda yangi <<Yung rejsi>>ni ishlab chiqdi. Bu reja 1929-yil avgustda Gaaga konfrentsiyasida ma'qullandi va 1930-yil yanvarida ikkinchi Gaaga konfrentsiyasida tasdiqlandi.

¹ <<КПСС резолюцияларида>>, II-кисм, 199-бет.

² М. Ф. Лебов, Новейшая истори Франции. М., 1959, 234-л.

³ Г. Поллит, Избранные статьи и речи 1918-1939. М., 1955, 156-л.

⁴ В. Е. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 169-л. ⁶ И. Р. Григорев, Уильям З. Фостер. М., 1975, 125-л.

¹ П. С. Петров, Возникновение Коммунистической партии США и ее борьба за легализацию. М., 1971, 158-л.

² В. Е. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 169-л.

³ И. Р. Григорев, Уильям З. Фостер. М., 1975, 125-л.

⁴ И. Л. Зубок, Н. Н. Яковлев, Новейшая история США. М., 1972, 225-л.

⁵ Б. Я. Михайлов, Очерки новой и новейшей время США. М., 1960, 152-л.

Yung rejasi ham Amerika kapitalining Yevropaga, shu jumladan Germaniyaga ko'proq kiritilishiga, Germaniyani SSSRga qarshi yo'naltirishga qaratilgan edi. Yung rejasiga muvofiq, Germaniyaning reparaatsiya to'lash muddati 59 yil (1988-yilgacha) uzaytirildi, bu davrda 113,9 milliard marka reparaatsiya to'lash kerakligi ko'rsatildi.¹ Yaqin 37 yil mobaynida reparaatsiya to'lovining yillik miqdori 2 milliard marka qilib belgilandi.² Endi Germaniya temir yo'llaridan keladigan foydalar va davlat budjetining daromad qismi reparaatsiya to'lovlarining birdan-bir manbai deb hisoblandi. German sanoati reparaatsiya to'lovlaridan ozod qilindi. Germaniya iqtisodiyoti ustidan bo'lgan nazorat AQSHning tashabbusi bilan butunlay bekor qilindi.³

Shunday qilib, Yung rejasi Germaniyaga ancha yengillik berdi. Mamlakatda reparaatsiya pullarini yig'ish ishi Germaniya hukumatining o'ziga topshirildi. Yig'ilgan reparaatsiya summasini g'olib mamlakatlar o'rtasida taqsimlash uchun Bazelda xalqaro hisob-kitob banki tashkil qilindi, bunda AQSH asosiy rol o'ynadi. << Daues rejasi >> va << Yung rejasi >> SSSRga qarshi qaratilgan rejalar bo'lib, Germaniyaning harbiy iqtisodiyotini tiklashga va urushga tayyorlanishda muhim bosqichlardan iborat edi.⁴ Imperialistik davlatlar SSSRga qarshi blok tuzishga va shu bilan o'z o'rtalaridagi ziddiyatlarni yumshatishga, Germaniya masalasida mumkin qadar har tomonlama til biriktirishga urindilar. Shu maqsadda 1925-yil 5-oktabrdan 16-oktabrgacha Lokarnoda (Shvetsariya) Angliya, Fransiya, Germaniya, Italiya va Belgiya vakillari ishtirokida xalqaro konfirensiya o'tkazildi.⁵ Konfiransiya oxirida Chexoslovakiya va Polsha vakillari chaqirildi.

AQSH konfirensiyada bevosita qatnashmasa-da, ammo uning uyushtirilishida va qarorlar qabul qilinishida chetdan turib katta ta'sir ko'rsatdi. Lokarno konfirensiyasida Reyn ahdnomasini qabul qilish bilan tugadi. Ahdnomada Germaniyaning Versal sulh shartnomasida belgilangan g'arbiy chegaralarining buzilmasligi, Reyndagi demilitarizatsiya zonasi rejiminibundan keyen ham

¹ П. С. Петров, Возникновение Коммунистической партии США и ее борьба за легализацию. М., 1971, 178-л.

² Lokarno ahdnomasi 1926-yilda Germaniya Millatlar Ittifoqiga a'zo bo'lganidan so'ng kuchga kirgan.

³ И. Р. Григорев, Уильям З. Фостер. М., 1975, 135-л.

⁴ Л. Зубок, Н. Н. Яковлев, Новейшая история США. М., 1972, 245-л.

⁵ << КПСС резолюцияларида >>, II-кисм, 221-бет.

buzmaslik ko'rsatildi. Kafolat ahdnomasiga muvofiq, Angliya bilan Italiya, Fransiya va Belgiyani Germaniya hujumidan, Germaniyani esa Fransiya va Belgiya armiyasi hujumidan qo'riqlaydigan bo'ldilar. Reyn ahdnomasidan tashqari, arbitraj to'g'risida Fransiya-Germaniya, Germaniya-Belgiya, Germaniya-Polsha, Germaniya-Chevoslavakiya shartnomalari tuzildi. Lekin Germaniyaning sharqiy chegaralari masalasi hal etilmadi. Lokarnoda qabul qilingan hujjatlar Sharqiy Yevropa xalqlariga, avvalo SSSRga qarshi qaratilgan edi. Bu hujjatlarda kelgusida Germaniyani SSSR bilan to'qnashtirish mo'ljallangan edi. Burjuaziya va sotsial-demokratiya matbuot organlari Lokarno konfirensiyasi ishini maqtadi. VKP (b) ning XIV syezdi Lokarno konfirensiyasi va uning hujjatlarini fosh qilib tashladi. „Lokarno ruhi“ – urush ruhi edi. U SSSRga qarshi urush tayyorlash uchun kuchlarni joy-joyiga qo'yish chorasi edi. „Lokarnodagi konfirensiya va kafolatlangan shartnomalar“.....,- deyiladi VKP (b) XIV syezdining qarorida, - keyingi vaqtda tuzilgan... bloklar bo'lib, bularning tig'i SSSRga qarshi qaratilgan”.

Sovet davlati antisovet ahdnomalarga qarshi choralar ko'rdi. 1925-yil 12-oktabrda Germaniya bilan SSSR o'rtasida savdo shartnomasi imzolandi. Sovet hukumati tinchlik va do'stlikka qaratilgan tashqi siyosatni hech og'ishmay davom ettirdi hamda, yuqorida aytilganidek, bir qator mamlakatlar bilan do'stlik va betaraflik to'g'risida bitimlar tuzildi. Xalqlar ommasining chalg'itish va zo'r berib qurollanish siyosatini niqoblash maqsadida bir qancha kapitalistik davlatlar 1925-yil 12-dekabrda Millatlar itifoqi Sovetining sessiyasida qurolsizlanish bo'yicha tayyorgarlik komissiyasi tuzdilar. Komissiya ishiga Millatlar itifoqining a'zosi bo'lmagan davlatlardan AQSH, so'ngra SSSR taklif etildi. SSSR bu komissiyaaning dastlabki ishiga taklif qilinmagan edi. Sovet hukumati SSSRning shuningdek Xitoy, Turkiya va Afg'onistonning komissiya ishiga taklif qilinmaganidan qat'iy norozi bo'lib chiqdi. Komissiya tashkilotlari SSSRning xalqaro roli oshib borayotganligi tufayli uni komissiya ishiga keyincha taklif qilishga majbur bo'ldilar. Sovet delegatsiyasi bu komissiyaaning IV-sessiyasidan boshlab qatnashdi. Ilgarigi uch sessiyada konkret fikr almashinmadi, AQSH, Angliya va boshqa

kapitalistik davlatlar qurolsizlanishni istamas edilar. Ular to'liq qurollanib olish haqida safsata sotdilar, buning uchun turli bahonalar axtardilar.

1927-yil 30-noyabrda Sovet delegatsiyasi barcha davlatlarning yalpi va batamom qurolsizlanishlari lozimligi to'g'risida taklif kiritdi. Bu taklifga muvofiq, barcha harbiy kuchlar, harbiy ministrlklar, harbiy harajatlar tugatilishi, urushni propaganda qilishni ta'qiqlovchi qonun qabul qilinishi lozim edi. SSSRning ximiya va bakteralogiya urushini ta'qiqlovchi Jeneva ahdnomasiga qo'shilganligini bildirdi.¹Sovet hukumati 1928-yil bahorida qurolsizlanish taklifini kiritdi. Imperialistlar qurolsizlanish ishini sabotaj qilib, bu taklifni ham rad etdilar. SSSR tinchlik g'oyasini, qurolsizlanish g'oyasini targ'ib qilishga katta rol o'ynadi. Sovet ittifoqining xalqaro obro'yi yanada oshdi. Imperialistik davlatlar vakillarining aybi bilan Tayyorgarlik komissiyasi nizolarni sharhlab beruvchi delegatsiya va umumiy xarakterdagi konvensiya loyihasini qabul qildi, xolos.

1927-yil aprelda Fransiya tashqi ishlar ministri Brian Fransiyaning pozitsiyasini mustahkamlash va AQSHni o'ziga moyil qilish uchun AQSH davlat sekretari Kellogga murojaat qilib, o'zaro urush qilmaslik to'g'risida shartnoma tuzishni taklif qildi.² Kellog Brianning tashabbusidan foydalanib, bunday shartnomaga Angliya va boshqa kapitalistik davlatlarni ham jalb etishni taklif qildi. 1928-yil 27-avgustda Parijda bir qator kapitalistik davlatlarning vakillari tomonidan Parij ahdnomasi - << Brian – Kellog ahdnomasi >> imzolandi.³ Ahdnomada milliy siyosatning quroli sifatida urushdan voz kechish, janjalli

¹ Jeneva ahdnomasi – 1925-yil 17-iyunda 37 davlat tomonidan imzolandi. SSSR 1927-yilda bu ahdnomaga qo'shildi va unga to'la amal qildi. Bir qator kapitalistik davlatlar ahdnomaga imzo chekkan bo'lsalar-da, unga amal qilmadilar. Aqsh esa, bu ahdnomaga qo'shilmadi.

² А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 65-л.

² А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970, 65-л.

³ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатура. М, 1961, 99-л.

⁴ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 105-л.

⁵ Д. С. Давидович, Революционный кризис 1923 г. в Германии и Гамбургское восстание. М., 1963, 115-л.

⁶ Я. С. Драбкин, Ноябрьская революция в Германии. М., 1967, 167-л.

masalalarni tinch yo'l bilan hal etish aytilgan edi. Lekin bu ahdnomada turli-tuman shartlar, noaniq jumlar ko'p edi.

<< Brian – Kellog ahdnomasi >> kapitalistik ziddiyatlarning, xususan Angliya – AQSH ziddiyatlarining keskinlashuvi natijasida vujudga kelgan.¹ Bu ahdnoma aslida revolutsion harakatlarga, ayniqsa SSSRga, uning tinchliksevarlik siyosatiga qarshi agressiv blok tuzishga qaratilgan edi.² Millatlar ittifoqida bo'lmagan AQSH shu ahdnoma asosida butun dunyoda gegemonlikka erishishni ko'zda tutdi. Sovet hukumati imperialistlarning antisovet, agressiv muddaolarini fosh qilib tashladi, ahdnomani tinchlik ishiga qaratishga urindi va uni hammadan oldin tasdiqladi.

Sovet hukumati bu ahdnomani tezda kuchga kiritish uchun 1929-yil 9-fevralda bir qancha qo'shni davlatlar bilan protokol tuzdi.³ 1929-yil yozida << Brian – Kellog ahdnomasi >> kuchga kirdi. Lekin imperialistik davlatlar unga amal qilmadilar. Imperialistik davlatlar patsifizm safsatabozligi niqobi ostida amalda urushga tayyorgarlik siyosatini olib bordilar. Versal-Vashington sistemasi kapitalistik mamlakatlarning iqtisodiy va siyosiy notekis rivojlanib borishiga, xalqaro ahvoldagi o'zgarishlarga tobora muvofiq kelmay qola berdi. Imperialistik davlatlar o'rtasidagi, kapitalizm lageri bilan SSSR o'rtasidagi, metropoliyalar bilan mustamlakalar o'rtasidagi va boshqa ziddiyatlar keskinlasha bordi.

Germaniya militarizmining SSSRga qarshi tiklana borishi natijasida nemis monopoliyalari, ayniqsa Germaniyaning revanshist tashkilotlari - << Mustamlakachilik imperiyasi amaliy hamkorligi >>, << Reyxstagning mustamlaka komiteti >> va boshqa Versal sistemasini reviziya qilish g'oyasini ilgari sura boshladilar. 1927-yilda imperialistik Yaponiya butun Osiyoda o'z hukmronligini o'rnatish rejasi (<< Tanaka memorandum >>) bilan chiqdi.⁴ Bu rejada Yaponiya imperialistlarining << qilich va qon >> siyosatiga amal qilib,

¹ General Tanaka Yaponiyaning o'sha vaqtdagi bosh ministri edi, u 1927-yil iyulida Yaponiya imperatori nomiga maxfiy memorandum yuborib, keng avantyuristik bosqinchilik programmasini tavsiya etgan va uni yapon imperatori qabul qilgan edi. Bu memorandum birinchi marta 1929-yilda xitoyliklar tomonidan e'lon qilindi va fosh etildi.

Osiyo mamlakatlarini SSSRning Uralgacha bo'lgan qismini, keyin hatto Yevropani birin-ketin bosib olish, deyarli jahonga hukmron bo'lib olish g'oyasi ko'zda tutildi, rejada SSSR va AQSH bilan urush bo'lishi << muqarrar >> deb qaraldi.

Sharq mamlakatlarida milliy ozodlik harakatlari keng quloch yoydi. 1926-1927-yillarda Indoneziya xalqining Gollandiya mustamlakachilariga, Hindixitoy xalqlarining Fransiya mustamlakachilariga qarshi kurashi avj oldi.¹Koreya xalqi yapon bosqinchilariga qarshi qahramonona kurashni davom ettirdi. Hindistonda ham antiimperialistik kurash kuchaya boshladi. Suriya xalqi o'z milliy mustaqilligi uchun kurashdi. Afrikaning shimolida, Marokashda rif qabilalarining Fransiya va Ispaniyaning mustamlakachilik siyosatiga qarshi kurashi qizib ketdi. Ulug' Xitoy xalqining 1924-yilda boshlangan revolyutsion g'rajdani urushi milliy ozodlik harakatining yuksalayotganligini yanada yaqqol ko'rsatardi. Imperializm sistemasini borgan sari kuchli larzaga keltirayotgan Xitoy revolyutsiyasining birinchi bosqichidagi harakat imperialistlarning Xitoydagi hukmronlik pozitsiyalariga, ularning tayanchi bo'lgan mahalliy militaristik to'dalarga qarshi qaratilgan edi. Xitoy revolyutsiyasi ichki va tashqi reaksiya kuchlarini vahimaga soldi va ularni g'azablantirdi. Bu reaksiya kuchlari birgalikda harakat qildilar. Imperialistik, reaksion tendensiya tobora kuchaydi.<< Shu sababli << rus masalasi>> va << Xitoy masalasi >> deb atalgan masalalar xalqaro imperializm siyosatining eng muhim masalalari bo'lib qolmoqda. Stabillashayotgan Yevropa imperializmi bu masalalardan ikki jihatdan: iqtisodiy ekspansiya jihatidan ham (bozor, kapital sotish doirasi, xom ashyo manbalari), revolyutsiyaning oldinini olish uchun unga qarshi urush tayyorlash jihatidan ham manfaatdordir>>.²

1925-yil 30-mayda Angliya va Amerika politsiyasi Shanxay ishchilari va studentlarining namoyishini o'qqa tutdi. Bu yovuzlik butun Xitoyda norozilikni kuchaytirib yubordi. Xitoy xalqi imperialistlarning Xitoydagi barcha imtiyozlarini, teng huquqqa asoslanmagan shartnomalarni bekor qilishni, chet el qurolli kuchlarini Xitoydan olib chiqib ketishni talab qildi. Xitoy revolyutsiyasidan

¹ Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения. (1924-1929). М., 1958, 259-л.

² VKP (b) Markaziy Komiteti va Markaziy Kontrolkomissiyasining 1927-yiliyun-iyul oyidagi qo'shma plenumi qaroridan, <<KPSS rezolyutsiyalarda>> II-qism, 408-bet.

vahimaga tushgan va quturgan imperialistlar o'z harbiy kemalarini Xitoy sohillariga yubordilar va xalqqa qarshi yovuzlikni davom ettirdilar. Shu bilan birga, ular teng huquqqa asoslanmagan shartnomalar qayta ko'rib chiqishga go'yo tayyor ekanliklarini bildirib, xalq ommasini aldashga urindilar. Lekin bu nayranglar natija bermadi.

1926-yil setabrda Angliya harbiy kemalari Vansyan shahrini o'qqa tutib, 6 mingga yaqin kishini halok qildi. 1927-yil 3-yanvarda Angliya qo'shinlari Uxandagi ommaviy mitingga hujum qildi. Bunda qariyb 30 kishi o'ldirildi va yarador qilindi. 1927-yil bahorida revolyutsion kurash keskinlashgan bir paytda AQSH, Angliya, Yaponiya va Fransiya Xitoyga qarshi ochiqdan-ochiq intervensiyaga o'tdilar, ularning 170 tacha harbiy kemasi Xitoy sohillariga yaqinlashib, Nankin kabi shaharlarni o'qqa tutdi va Nankinning o'zidagi qariyb 2 ming kishi halok bo'ldi. Bu bilan imperialistik zo'ravonlar Xitoy xalqini, shuningdek Sharqda ozodlik uchun kurashayotgan boshqa xalqlarni qo'rqitmoqchi bo'ldilar.¹ Ular revolyutsiyaga xiyonat qilgan Gomindanning o'ng guruhini, chan kayshilarni qo'llab-quvvatladilar hamda kontrevolyutsion isyonlar ko'tarishga undadilar. Chan Kay-shi xalqaro imperializmning, ayniqsa Amerika imperializmning Xitoy revolyutsiyasiga qarshi va SSSRga qarshi kurash qurolga aylandi.² Vaqtincha muvaqqatsizliklarga qaramay, Xitoy revolyutsiyasi tobora chuqurlashtirdi. Sovet xalqlari, butun dunyodagi progressiv kishilar Xitoy xalqini siyosiy-ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatladilar. Angliya va boshqa mustamlakachi imperialistlarning pozitsiyalari ancha zaiflashib bordi.³

Milliy ozodlik harakatlarining yuksalib borishi, SSSRdagi sotsialistik qurilishning mustamlaka va qaram mamlakatlarga revolyutsion ta'siri, Sovet Ittifoqi xalqlarining Sharq xalqlari bilan hamkorligi imperialistik davlatlarning

¹ Л. П. Кожевникова, Очерки рабочего движения Франции. 1917-1967. М., 1968, 21-л.

² Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

³ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945гг. М., 1986, 85-л.

⁴ З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 768-л.

⁵ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 61-л.

SSSRga qarshi yangidan xuruj va ig'volar boshlab yubordi.¹ 1927-yil fevralda Angliya hukumati SSSRning go'yo Angliyaga qarshi yurgizayotgan targ'ibotiga norozilik bildirish va do'q-po'pisa qilish yo'li bilan o'z talablarining, og'ir savdo shartlarining SSSR tomonidan qabul qilinishiga erishmoqchi bo'ldi.² Bu ig'voning muvaffaqiyatsizlikka uchrashiga va Sovet hukumatining ogohlantirishiga qaramay, Angliya va boshqa imperialistik davlatlar SSSRning Xitoydagi elchixonalariga va sovet diplomatiyasi xodimlariga qarshi bir qancha suiqasd va fitnalar uyushtirdilar, SSSR bilan Xitoy munosabatlarini keskinlashtirib, bu ikki mamlakat o'rtasida urush chiqarmoqchi bo'ldilar.

1927-yil 12-mayda Londonda Angliya-Sovet aksiyali jamiyati - <<Arkos >> binosiga hujum qilindi.³ Politsiya po'lat sandiqlarini buzib, Sovet savdo vakolatxonasining hujjatlarini bosib oldi. Angliya hukumati SSSRni Angliyaning ichki ishlariga << aralashish >>da ayblashga urundi va soxta hujjatni pesh qilib 1927-yil 26-mayda SSSR bilan diplomatik aloqani uzdi.⁴ Sovet hukumati bunday g'arazli harakat va ig'volarni fosh qildi va diplomatik aloqalarni uzish avvalo Angliyaning o'zi uchun zararli ekanligini bildirdi. SSSR xalq xo'jaligining barcha sohalardagi ishlarni muvaffaqiyatli davom ettirdi. Fransiya imperialistlari va ularga qaram bo'lgan Sharqiy Yevropadagi hukmron doiralar, Ruminiya hamda Polsha burjuaziyasi pomeschchiklari Angliya imperialistlarining hatti-harakatlarini quvvatladilar. Ular Boltiqbo'yida SSSRga qarshi ittifoq vujudga keltirmoqchi bo'ldilar. 1927-yil 7-iyunda Varshavada bir rus oq gvardiyachisi sovet elchisi Voykovni o'ldirdi. Imperialist ig'vogarlari o'z agentlari yordamida SSSR bilan Polsha o'rtasida urush chiqarmoqchi bo'ldilar.

SSSR bilan Fransiya, Polsha va bir qancha mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlar yomonlashdi. Xuddi o'sha vaqtlarda chet el razvetkasining agentlari SSSRning bir qator shaharlarida qo'poruvchilik va terrorchilik ishlarini kuchaytirib

¹ К. Б. Виноградов, Девид Ллойд Джордж. М., 1970. 67-л.

² Н. Ф. Мочульский, Рабочее движение в Англии накануне второй мировой войны. М., 1968, 234-л.

³ К. Б. Виноградов, Девид Ллойд Джордж. М., 1970. 67-л.

⁴ Н. Ф. Мочульский, Рабочее движение в Англии накануне второй мировой войны. М., 1968, 234-л.

yubordilar. 1927-yilda ingliz diversantlari Leningraddagi partiya klubiga bomba tashladilar, 30 ga yaqin kishi yarador bo'ldi.¹

1927-yil 14-iyunda Angliyaning tashabbusi bilan Jenevada chaqirilgan xalqaro konfirensiyada Angliya Kominternga qarshi kurash niqobi ostida SSSRga qarshi ittifoq tashkil etishga va Sovet respublikasiga qarshi urush boshlashga da'vat etuvchi delegatsiyani qabul qildirishga urunib ko'rdi. Umuman, << SSSRga qarshi kontrevolyutsion urush ochish... << o'sha davrning >> eng jiddiy muammosi>>hisoblanar edi. Lekin imperialistik ziddiyatlar, chet ellardagi ishchilar sinfining revolyutsion harakati, SSSRni qo'llab-quvvatlashi, Sovet davlatining tinchlikni himoya qilishga qaratilgan faol va izchil tashqi siyosati, antisovet ig'volarini fosh etib, nizolarning chuqurlashuviga yo'l qo'ymasligi tufayli, imperialistlarning antisovet bloklar tuzish va SSSRga qarshi urush ochish rejalari barbod bo'ldi. 1927-yil oktabrda, G'arbda sovetlarga qarshi asabiylik avjiga chiqqan bir vaqtda SSSR bilan Eron o'rtasida kafolat va betaraflik to'g'risida shartnoma tuzildi.

Kommunistik partiya va Sovet hukumati lenincha tinch-totuv yashashprinsiplariga qat'iy amal qilib, tinchlik, hamkorlik va do'stlik uchun izchil kurashni davom ettirdi. 1927-yili Jenevada bo'lib o'tgan xalqaro iqtisodiy konfirensiyada sovet delegatsiyasi sotsializm o'z mohiyati bilan do'stlik va tinchlik ekanligi ta'kidlab, SSSRning boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy va siyosiy hamkorlik qilishga tayyor ekanligini bildirdi, SSSRga qarshi iqtisodiy va siyosiy boykotdan voz kechishga chaqirdi va batamom qurolsizlanishni amalga oshirishni jiddiy ravishda talab qildi. 1927-1929-yillarda SSSRda tinch qurilish butun front bo'ylab sotsializmning kengaytirilgan hujumi davom etdi. Mamlakatni sotsialistik asosda qayta qurishda tarixiy yutuqlar qo'lga kiritildi. Kapitalistik mamlakatlarda esa iqtisodiy tushkunlik boshlandi. Xalqaro kontrevolyutsiyasi SSSRning o'sayotgan quvvatiga ichdan turib zarba berishga ham urindi. U josuslik va qo'poruvchilik ishlarini kuchaytirdi. 1928-yili SSSRda Shaxti ko'mir rayonida fosh qilingan katta zararkunandachilik tashkiloti (<< Shaxta ishi >>) tashqi va ichki antisovet kuchlarning birgalikda harakat qilganligini yaqqol ko'rsatdi. <<

¹ Z.R.Nuriddinov, Garb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T.,<<O'qituvchi>>, 1978,473-bet.

Shaxta ishi >> xalqaro kapitalning SSSRga qarshi iqtisodiy intervensiyaning bir ko'rinishi edi.

1929-yilda xalqaro reaksiya Xitoyda va Xitoy-Sovet chegarasida SSSRga qarshi katta ig'vo uyushtirdi. 1929-yil iyul-avgust oylarida gomindanchi qo'shinlar va rus oq gvardiyachilari Xarbindagi Sovet elchixonasini tor-mor qilib, SSSRga qarashli va Sovet ittifoqi bilan Xitoy tomonidan teng huquqlik asosida boshqarilayotgan Shimoliy-sharqiy Xitoy (Dunbey) dagi Sharqiy Xitoy temir yo'liga va Sovet chegara rayonlariga hujum boshladilar.¹ SSSR va Gomindan Xitoy o'rtasida diplomatik aloqa uzildi. Xalqaro imperialism shu yo'l bilan SSSRga qarshi oldin Sharqdan, keyin G'arbdan urush ochmoqchi bo'ldi. Imperialistlar, ularning malaylarining bu qabih harakatlari va avantyurasi ham barbod bo'ldi. Gomindan Xitoyning iltimosiga ko'ra, 1929-yil dekabrda KVJDda oldingi holatni tiklash yuzasidan Sovet-Xitoy protokoli imzolandi. Xitoy tomoni oq gvardiyachilarni quolsizlantirish majburiyatini oldi. Sovet qo'shinlari o'z pozitsiyalariga qaytdilar. Angliya 1929-yili leyboristlar hokimoyat tepasiga kelgach, SSSR bilan diplomatik munosabatlar tiklandi. Shunday qilib, SSSR dushmanlar hujumiga zarba berib, katta yutuqlarni qo'lga kiritgan.

¹Z.R.Nuriddinov, G'arb mamlakatlarining eng yangi tarixi. T., <<O'qituvchi>>, 1978, 474-bet.

II.2. Germaniyani qayta tiklashda AQSHning roli.

Ushbu davrda Germaniyada ahvol tobora yomonlashib borayotgan edi. 1921-yil avgustidan e'tiboran Germaniya reparatsiya to'lay boshladi.¹ Urushda g'alaba qilgan davlatlar – AQSH, Angliya va Fransiya Germaniya moliyasini nazorat ostiga oldilar. Bu esa Germaniyaning iqtisodiy jihatdan chet el ta'siriga tushib qolish xavfini kuchaytirdi va mamlakat moliyasiga yomon ta'sir qildi. Siyosiy vaziyat ham keskinlashdi, hukumat krizisi yuz berdi. Yirik burjuaziya va harbiy-monarxist doiralar reparatsiya to'lamaslikni talab etdilar. Germaniya hukumati reparatsiya to'lovini to'xtatishga majbur bo'ldi. 1922-yil 16-aprelda Germaniya Sovet Rossiyasi bilan Rapallo (Italiya) shartnomasini tuzdi.² Xalq ommasi buni ko'pdan beri talab qilib kelmoqda edi. Bu shartnomaga muvofiq, ikki mamlakat bir-birlarini tanidilar, normal diplomati va iqtisodiy aloqalar o'rnatish haqida kelishib oldilar. Rapallo shartnomasi, bir tomondan, Sovet diplomatiyasining katta g'alabasi bo'ldi, ikkinchi tomondan, Germaniyaning tashqi siyosiy mavqeini ancha mustahkamladi.³

Fransiya bilan Belgiya Germaniyaning reparatsiya to'lashidan bosh tortganligidan foydalanib, 1923-yilda 12-yanvarda Rur viloyatini okkupatsiya qildi.⁴ Rur havzasida Germaniya aholisining 10% yashardi, mamlakatda ishlab-chiqatiladigan po'latning 40% i, cho'yaning 70% i, ko'mirning 88% i, Rur viloyatida ishlab chiqarilardi. Okkupatsiya qilish natijasida Rurda sanoat ishlab chiqarishi zaiflashdi, ishsizlik kuchaydi, ishchilarning ish haqi kamayib ketdi. Nemis kapitalistlari va Kuno boshchiligidagi hukumat esa, bu okkupatsiyaga nisbatan „passiv qarshilik ko'rsatish“ taktikasini tutdi. Bu taktika ishchilar bilan burjuaziyani sinfiy hamjihatlikka undash, okkupantlar uchun ko'mir qazib chiqarmaslik va uni jo'natmaslik yo'li bilan qarshilik ko'rsatishdan iborat edi. Rur sanoat korxonalari va shaxta egalari davlatdan kompensatsiya oldilar, ular mutlaqo

¹ В. Д. Кульбакин, Очерки новейшей истории Германии. М., 1962, 407-л.

² А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 57-л.

³ М. Кривогуз, Спартак и образование Коммунистической партии Германии. М., 1962, 303-л.

⁴ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатуры. М, 1961, 91-л.

⁵ Z.R. Nuriddinov, G'arbmamlakatlarningengyangitarixi<<O'qituvchi>>T., 1968, 166-bet.

⁶ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945гг. М., 1986, 131-л.

⁷ O'sha asarda

zarar ko'rmadilar. Lekin „passiv” taktikaning butun o'g'irligi ishchilar gardaniga tushdi. Ko'pgina sanoat korxonalari yopildi. Ishsizlarsoni ko'payib, qariyb 5 million kishiga yetdi.¹ Qog'oz pul yanada qadrsizlandi, binobarin, inflatsiya g'oyat kuchaydi. 1923-yil yanvarida Amerikaning bir dollari 10 ming makaga teng bo'lsa, o'sha yilning iyunida 110 ming markaga, oktabrda 8 milliard markaga tenglashdi. Mehnatkashlar amalda ish haqidan mahrum bo'ldilar. 1923-yilning sentabrda malakali ishchi bir haftada 126 million marka olardi, bu pul hisobiga esa faqat ikki kun tirikchilik qilishi mumkin edi.² Mamlakat ochlik va qashshoqlik girdobida qoldi. Sovet hukumati va sovet xalqi Rurning okkupatsiya qilinganini qattiq qoraladi.³ SSSR kasaba soyuzlari Rur ishchilariga oltin hisobida 100 ming so'm miqdorida moddiy yordam ko'rsatdi: 160 vagon g'alla, 1400 tonna javdari bug'doy (hammasi bo'lib 500 ming pudga yaqin g'alla) va 2 paraxod oziq-ovqat yubordi.⁴ Boshqa mamlakatlarning mehnatkashlari ham nemis ishchilariga yordam berdilar.

Germaniyada siyosiy vaziyat yanada keskinlasha bordi. Rur va boshqa viloyat ishchilari okkupantlarga va Germaniya hukumatiga qarshi, xalqning milliy manfaatlariga xiyonat qilgan Konrad Adenauer boshchiligidagi nemis monopolist-separatistlariga qarshi kurashdilar. Stachkalar va ochlik g'alayonlari kuchaydi. 1923-yil mayida Rur havzasida 400 ming ishchi ish tashladi.⁵ 1923-yil avgustida butun mamlakatda ish tashlashlar jiddiy siyosiy tus oldi. Ishchilar Kuno hukumatining iste'fo berishini talab qildilar va bu hukumat iste'fo berishga majbur bo'ldi. „Xalq” partiyasining lideri Shtrezeman boshchiligidagi keng koalitsion hukumat tuzildi. Yangi hukumat „passiv qarshilik ko'rsatish” taktikasini bekor qildi.⁶ Biroq Germaniya hukmron doiralari ishchilar harakatiga qarshi kurashda okkupantlar bilan hamkorlik qildilar, harbiy diktatura o'rnatdilar. Iqtisodiy ahvol yaxshilanmadi. 1923-yil sentabr- oktabr oylarida butun mamlakatda yana kuchli stachka harakatlari va qurolli to'qnashuvlar boshlanib ketdi. Revolutsion vaziyat vujudga keldi. O'g'ir sanoat rivojlangan Saksoniya va Tyuringiya revolutsion

¹ В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 144-л.

² O'sha asarda

³ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 245-л.

⁴ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 99-л.

⁵ М. Кривогуз, Спартак и образование Коммунистической партии Германии. М., 1962, 303-л.

harakatining markazi bo'lib qoldi. Kompartiya va ishchilar sinfi oldida qurolli qo'zg'alon yo'li bilan siyosiy hokimiyatni qo'lga olish vazifasi turar edi.¹ Kommunistlarning tashabbusi va ishchilar ommasining qat'iy talabiga binoan, sotsial - demokratlar kommunistlar bilan birgalikda harakat qildilar. 1923-yil 11-oktabrda Saksoniyada, 16-oktabrda Tyurigiya so'l sotsial-demokratlar (ko'pchilik) va kommunistlar (ozchilik) dan iborat ishchi hukumatlari tuzildi. Sotsial - demokratlar va kommunistlar landtaglarda ko'pchilikni tashkil etganligi tufayli ishchi hukumatlari tinchlik yo'li bilan tashkil qilindi.² Lekin o'sha vaqtda Kommunistik partiya Markaziy Komitetida bo'lgan o'ng opportunist Brandler va Talgeymer revolyutsiyaning yanada rivojlanishiga to'sqinlik qildi. Ishchi hukumatlari sostavidagi kommunistlar brandlerchilar ta'sirida bo'lib, ishchilarni qurollantirish choralari ko'rmadilar. So'l sotsial demokratlar esa ikki yuzlamachilik pozitsiyasini tutdilar.³

Kompartiyaning Gamburg tashkiloti sekretari Ernst Telman boshchiligidagi kommunistlarga qurolli qo'zg'alon uyushtirdilar. 23-25-oktabrda ishchilar shaxarchasi Barmbekda 300 jasur drujinachi 6 ming politsiya va soldatga qarshi 3 kun qahramonona barrikada kurashi olib bordi.⁴ Gamburg qo'zg'aloni 1923-yildagi revolyutsion yuksalishning eng yuqori nuqtasi bo'ldi. Lekin brandlerchilar, sotsial-demokratlar va kasaba soyuz opportunistlarining xoinligi, ishchilar sinfi birligining bo'lmagnligi va hokazolar natijasida Gamburg qo'zg'aloni mag'lubiyatga uchradi. Reyxsver qismlari Saksoniya va Tyuringiyaga kirdi.⁵ Butun mamlakatda harbiy holat e'lon qilindi. Shunday qilib, Germaniyada revolyutsion yuksalish mag'lubiyatga uchradi. Kompartiya ta'qiqlandi va u yana yashirin sharoitda ishlashga ko'chdi. 1923-yil noyabrda fashistlar partiyasi aktivlashib, imperiya hukumatiga qarshi isyon ko'tardi.⁶ 8-9-noyabrda Myunxenda Gitler o'z shturmlariga tayanib, davlat to'ntarishi qilishga urindi. U o'zini diktator

¹ Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 145-л.

² О'sha asrda

³ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 247-л.

⁴ А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 56-л.

⁵ А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970, 47-л.

⁶ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатура. М, 1961, 90-л.

⁷ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 98-л.

deb e'lon qildi va Berlinda harbiy yurish uyushtirmoqchi bo'ldi. Lekin fashistlar isyoni reyxsver qismlari tomonidan tezda bostirildi. Chunki nemis burjuaziyasi o'sha davrda mamlakatdagi o'z mavqeining zaifligi va xalqaro vaziyatni nazarda tutib oshkora fashistik diktatura o'rnatishga jur'at eta olmadi. O'sha vaqtda ishchilar sinfi mag'lubiyatga uchraganligi sababli nemis burjuaziyasi fashistik diktatura o'rnatishga uncha muhtoj ham emas edi. 1923-yili Fransiyaning ichki siyosiy va tashqi hayotida muhim voqealar bo'lib o'tdi. Germaniya Fransiya reparaitsiya to'lovlarini to'xtatib qo'yganligi bahonasi bilan fransuz imperialistlari hamda ularning o'taketgan reaksioner va shovinist Puankare hukumati Yevropada gegemonlik qilish uchun kurashni davom ettirdi. Gegemonlikning moddiy ba'zasini yaratish maqsadida, Belgiya va Italiyaning qo'llab-quvvatlashi bilan 1923-yil yanvarida Fransiya o'z qo'shinlarini Germaniyaning og'ir sanoat markazlaridan biri bo'lgan Rur viloyati va Reyn viloyatining bir qismiga kiritib, bu yerlarni bosib oldi.

Rurning okkupatsiya qilinishi Germaniyada revolyutsion vaziyatni vujudga kelishini tazlashtirdi va Fransiya mehnatkashlarining ahvolini yanada og'irlashtirib, revolyutsion harakatning yuksalishiga olib keldi. Fransiya soliqlar 20% oshirildi, narx-navo ko'tarildi, moliyaviy ahvol og'irlashdi, inflatsiya boshlandi, ya'ni muomuladagi frank haddan tashqari ko'payib, qadrsizlanib ketdi. Ishchi va xizmatchilarning real ish haqi yanada kamaydi. Yirik monopoliyalar yanada boyib, mayda korxona egalari va savdogarlar ko'plab sindi.

Fransiya ishchilar sinfi iqtisodiy va siyosiy talablar bilan maydonga chiqdi: ish tashlash va siyosiy namoyishlar tez-tez bo'lib turdi. Fransiya kommunistik partiyasi siyosiy kompaniyaga, ishchilar sinfining milliy va internatsional kurashning birga qo'shib olib borilishiga raxbarlik qildi. Militarizm va urush xavfiga qarshi keskin kurash davom etirildi. Rurni okkupatsiya qilish jinoyat deb qaraldi. Rurni bo'shatib chiqish, SSSR bilan aloqa o'rnatish qat'iy talab qilindi. Germaniya ishchilarining revolyutsion kurashi qo'llab-quvvatlandi. Rurdagi fransuz soldatlari orasida tushunturish ishlari olib borildi. Fransuz soldatlari bilan nemis ishchilari o'rtasida birodarlashuv yuz berdi. Kommunistik partiya kurashni qiyin sharoitda davom ettirdi, M.Kashen va boshqa raxbarlar shu

vaqtda qamoqqa olingan edi.¹ Partiya raxbarligi opportunist Frossar gruppasi qo'liga o'tgan edi. Ayrim trotskiychi elementlar ham partiyaga qarshi harakat qilmoqda edilar. Kommunistik partiya keskin siyosiy kurash natijasida Frossar va uning sheriklariga hamda trotskiychilarga zarba berdi. Kommunistik partiyaning bolsheviklashtirishda, tashkiliy va g'oyaviy jihatdan mustahkamlashda muhim qo'lga kiritildi. Antimarkistik oqimlarga qarshi kurash davom ettirildi. Ishchilarning siyosiy aktivligi o'sa bordi. <<1923-yilda Fransiya ishchilar sinfining Germaniya ishchilar sinfi bilan birdamligi fakti, -dedi M.Torez, - partiyamiz tarixining faxrli monomentlaridan biri bo'lib qoldi.² Bu, partiya saflarini jipslashtirishga, uning ishchilar sinfi orasida obro'yini kuchaytirishga va sotsial-demokratiya ta'sirining kamayib, Kommunistik partiya ta'sirining keng yoyilishiga ancha yordam berdi>>.

urning okkupatsiya qilinishi va Germaniyada revolyutsion vaziyatning yetilishi AQSH va Angliya imperialistlarini bezovta qildi.³ Ular Yevropada o'z rolini oshirish uchun urinayotgan edilar. AQSH va uning himoyasidagi nemis burjuziyasi va hukmron doiralari Fransiya oldida taslim bo'lmadi. Moliya qiyinchiliklari natijasida Fransiya AQSHdan qarz so'rashga majbur bo'ldi. AQSH qarz berishdan oldin Rurni bo'shatib chiqishni talab qildi. Fransiyaning imperialistik agressiyasi siyosati va Rur avantyurasi mag'lubiyatga uchradi. Uning oqibatlari Fransiya uchun ancha og'ir bo'ldi. Fransiya Amerika banklariga bog'liq bo'lib qoldi.⁴ Fransiyaning xalqaro pozitsiyasi zaiflashib, Yevropadagi gegemonligini yo'qotdi. Fransuz yirik burjuaziyasi bundan norozi bo'ldi. Ichki siyosiy vaziyat keskinlashib bordi. Mehnatkashlarning ahvoli yanada mushkullashdi.⁵

Angliya mustamlaka va dominionlarida imperializmi zulmi ostida ezilib kelgan xalqlarning Oktabr revolyutsiyasi ta'sirida, yosh ishchilar sinfining aktiv

¹ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, 145-л.

² Е. В. Ананова, Новейшая история США 1919-1939. М., 1962, 160-л.

³ З. Р. Нуриддинов, Г'арбмamlakatlarining eng yangitarixi <<O'qituvchi>> Т., 1968, 168-bet.

⁴ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 133-л.

⁵ O'sha asarda

ishtirokida milliy ozodlik harakatlari ko'tarildi va rivojlandi. 1919-yilda Xitoyda chet el, shu jumladan ingliz imperialistlariga qarshi qaratilgan yangi tipdagi demokratik revolyutsiya boshlandi.¹ Mustamlakachilar jazo tadbirlariga, terrorga qaramay, 1919-1921-yillarda Irlandiyada, 1918-1922-yillarda Hindistonda, 1919-yilda Afg'onistonda, 1919-1922-yillarda Misrda va boshqa mamlakatlarda kuchli revolyutsion-milliy ozodlik harakatlari avj oldi hamda Britaniya imperiyasining va mustamlakachilik sistemasining krizisi boshlandi. 1919-yilning boshida Irlandiyada yana qo'zg'alon ko'tarildi. Angliya parlamentining Irlandiya deputatlari Dublinda yig'ilishib, Irlandiya parlamentini tuzdilar, Irlandiya respublika deb e'lon qilindi. Muvaqqat hukumat va armiya tuzildi.² Irlandiya va Angliya qo'shinlari o'rtasida jiddiy harbiy to'qnashuvlar bo'ldi va jangler boshlanib ketdi. Bu qattiq kurashning asosiy kuchi ishchi va dehqonlar bo'ldi. Milliy-ozodlik kurashiga raxbarlik milliy burjuaziya kuchlari – shinfeynerlar qo'lida edi.³ Xalq ommasi kurashining kuchayishi, bir tomondan, ingliz hukumatini yon berishga, ikkinchi tomondan, shinfeynerlar orasida ajralishning yuz berishiga olib keldi. 1921-yilda ingliz hukumati o'ng shinfeynerlar bilan Angliya-Irlandiya bitimini imzoladi.⁴ Bitimga ko'ra, Irlandiya ikkiga bo'lib yuborildi: Shimoliy Irlandiya (Olster – 1,5 million kishidan iborat aholiga ega bo'lgan 6 ta graflik) Angliya tarkibida qolaverdi va Angliya shundan boshlab „Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya qo'shma qirolligi“ nomini oldi.⁵ Janubiy Irlandiya (Eyre – 3 million kishidan iborat aholiga ega bo'lgan 26 ta graflik) „Ozod Irlandiya davlati“ deb e'lon qilindi va dominion hquqini oldi. Lekin dehqonlar ingliz lendlordlarining asoratidan qutula olmadilar. Ular yer to'lovlaridan ozod qilinmadi. Angliya harbiy ba'zalari saqlanib qoldi. „Ozod Irlandiya“ tashqi siyosati Angliya nazorati ostida bo'ldi. Bundan norozi

¹ Л. П. Кожевникова, Очерки рабочего движения Франции. 1917-1967. М., 1968, 21-л.

² Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

³ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 85-л.

⁴ З. Чернуха, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976. 768-л.

⁵ М. Торез, Избранные произведения. М., 1959, Т. 1. 61-л.

bo'lgan so'l shineynerlar kurashni davom ettirdi.¹ Shu munosabat bilan boshlangan grajdanlar urushi 1923-yilgacha davom etdi.

Hindistonda ingliz imperializmiga qarshi revolyutsion harakat yuksaldi. Amritsar shaxrida qonli voqea, panjob viloyatida qo'zg'alon va Hindistonning boshqa joylarida kuchli ommaviy chiqishlar tuz berdi.² Ingliz hukumati o'z mustamlakachilik rejimini saqlab qolish maqsadida yon berishlarga, konstitutsion reforma o'tkazishga majbur bo'ldi. Hindiston milliy burjuaziyasining yuqori tabaqasi va pomeshchiklar mamlakatning siyosiy hayotida qatnashadigan bo'ldilar. Ozodlik kurashlari esa yanada shavqatsizlik bilan bostirildi. Milliy burjuaziya raxbarlarining kurashdagi passivlik pozitsiyasi ommaviy kurashning vaqtincha susayishiga olib keldi. 1919-yilda Afg'oniston xalqi o'z mamlakatiga bostirib kirgan ingliz bosqinchilariga qarshi qurolli kurashga otlandi va uchinchi Angliya-Afg'oniston urishida o'z mustaqilligi uchun mardonavor kurashib, g'alaba qildi. Angliya Afg'onistonning mustaqilligini tanishga majbur bo'ldi. 1919 va 1921-yillarda Misrda ingliz mustamlakachilariga qarshi kata namoyishlar, ish tashlashlar, politsiya bilan to'qnashuvlar va qurolli qo'zg'alonlar bo'ldi. Shahar va qishloq mehnatkashlari bu kurash va qo'zg'alonlarning asosiy kuchlari edi. 1922-yil fevralida Angliya yon berishga majbur bo'lib, Misr ustidan bo'lgan o'z protektoratini bekor qilajagini bildirdi. Misr rasman mustaqil davlat deb e'lon qilindi. Lekin ingliz qo'shinlari ilgarigidek Misrda qoldirila berdi. Misr xalqi ozodlik va to'la mustaqillik uchun kurashni davom ettirdi.

1919-1922-yillarda Turkiya va Eronda milliy ozodlik harakati, revolyutsion-demokratik kurashning yuksalishi natijasida Angliyaning bu mamlakatlardagi siyosati mag'lubiyatga uchradi. Ingliz imperialistlari va Gretsiya bosqinchilarining Turkiyadagi intervensiyasi tor-mor qilindi. Imperialistlarning Turkiyadagi intervensiyasi tor-mor qilindi. Imperialistlarning Turkiyada zo'rlik bilan o'rnatgan taslimchilik rejimi tugatildi. 1919-yilda Angliyaning Eron bilan

¹ Д. П. Прицкер, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 103-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945 гг. М., 1986, 85-л.

imzolagan o'g'ir shartli shartnomasi ham 1921-yil fevralida bekor qilindi. Angliya Afg'onistondan tashqari, Turkiya bilan Eronning mustaqilligini ham e'torof qilishga majbur bo'ldi. Angliya o'z dominionlariga ayrim yon berishlariga majbur bo'ldi. Sharq mamlakatlarining ozodlik va mustaqillik uchun kurashda katta yutuqlarga erishishlarida yosh Sovet Respublikasining buyuk ozodlik kurashi, Sovet Rossiyasining do'stlik siyosati, ilgari bu davlatlar bilan imzolangan imperialistik talovchilik shartnomalarini bekor qilib, shu mamlakatlarni qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. 1921-yil fevralida Sovet-Eron, Sovet-Afg'oniston do'stlik shartnomalari, 1921-yil martida do'stlik va birodarlik to'g'risidagi Sovet-Turkiya shartnomasi tuzildi. Sovet-Turkiya shartnomasida bo'g'ozlar to'g'risidagi masala Qora dengiz davlatlariga tegishli masala ekanligi uqtirib o'tildi. Birinchi jahon urushi yillarida Iroq hududi Buyuk Britaniya tomonidan ishg'ol qilindi. Bu hol urushdan keyin ham davom etdi. Mamlakatning barcha qismlarida ingliz mustamlaka ma'muriyati tashkil etildi. Mustamlakachilik siyosati mamlakat xo'jaligini halokat yoqasiga keltirib qo'ydi. Ishchi kuchi yetishmasligi oqibatida ekin maydonlarining deyarli yarmi tashlandiq holga kelib qoldi. Bu ishga yaroqli erkak aholining katta qismi dastlab Turkiya armiyasiga, keyinchalik esa ingliz mehnat korpuslariga safarbar etilganligining oqibati edi.

Mamlakatda ocharchilik yuz berdi. Turli yuqumli kasalliklar keng tarqaldi. Ingliz mustamlakachi ma'murlari katta yer egalarini o'z tomonlariga og'dirishga urindilar. Shu maqsadda dehqon jamoalariga qarashli yerlarni ham qabila shayxlari, diniy va dunyoviy rahnamolarga biriktirib qo'yishdi. Biroq bu tadbir Iroqda ham milliy-ozodlik kurashini oldini ololmadi. Vatanparvar kuchlar, ya'ni milliy burjuaziya, kichik va o'rta qabilalar shayxlari, inglizlarning o'z faoliyatlariga aralashuvidan norozi bo'lgan yirik yer egalari, ruhoniylar „Mustaqillik posbonlari“ deb ataluvchi jamiyat tuzgandi. Uning rahbari savdogar Ja'far Abu Timman edi. Jamiyat Iroqqa to'la mustaqillik berishni talab etdi. Inglizlar bilan kelishuvchilar tarafdorlari esa „Iroq vasiyati“ deb ataluvchi jamiyatni tuzdilar. 1920-yilda milliy-ozodlik qo'zg'aloni boshlandi. 30-iyulda Rumeys shahrida yuz bergan qo'zg'alon umumiyroq ozodlik urushiga aylanib ketdi. Qo'zg'alonchilar mamlakatning katta qismini ozod qilishga erishdilar.

Buyuk Britaniya bu ozodlik urushini bostirish uchun 150 ming kishilik armiya tashladi. Bu armiya 1920-yilning noyabr oyida ozodlik urushini bostirishga musharraf bo'ldi.¹ Ozodlik urushi to'loqidan cho'chib ketgan Buyuk Britaniya ichki kuhrar madadiga har qachongidan ham kengroq tayana boshladi. Shularning yordamidagina o'z mavqeini saqlab qolishga intildi. Shu maqsadda oktabr oyida Iroqning muvaqqat hukumatini tuzdi, 1921-yilning 23-avgustida esa Angliyaning sodiq malayi Faysal al- Xoshimni (Suriyaning sobiq qiroli) Iroq qiroli deb e'lon qilinishiga erishdi.² Amalda esa hokimiyat, mandate tizimi qoidasiga ko'ra, ingliz Oliy komissari qo'lida edi. 1922-yilda inglizlar Iroqqa bir og'ir shartnomani qabul qildirdilar. Unga ko'ra, Iroq hukumati xalqaro va moliyaviy masalalarini ingliz Oliy komissari maslahati bilan hal etishi zarur edi. Bundan tashqari, Iroqda ingliz qo'shinlari saqlanib turadigan bo'ldi. Mamlakat iqtisodiy hayoti ingliz komissiyasi nazorati ostiga olindi. 1924-yilga kelib Buyuk Britaniya mandat tizimi yo'li bilan Iroqda to'la hukmronlikka erishdi. „Terkish petrolium“ kompaniyasini tuzib, Iroq neftini qo'lga oldi. 1927-yilda bu „Iroq petrolium kompaniyasi“ga aylantirildi. Biroq bu ozodlik kurashini to'xtata olgani yo'q. Iroq milliy partiyasi (rahbari Abu Timman), Iroq uyg'onish partiyasi (rahbari as-Sadr) boshchiligidagi Iroq xalqi ozodlik kurashini davom ettirdi.³ Buning natijasida Buyuk Britaniya mustamlakachi hukumati Iroq vatanparvar kuchlariga yon bosishga majbur bo'ldi va endi mandat nazoratini bekor qilish zarur, degan xulosaga keldi.

1930-yilning 30-iyunida Buyuk Britaniya va Iroq o'rtasida 25 yillik yangi shartnoma imzolandi.⁴ Iroq nomidan shartnomani Bosh vazir Nuri Said imzoladi. Shartnomaga ko'ra, Buyuk Britaniya Iroq Millatlar Ligasiga kirgandan so'ng, uni mustaqil davlat, deb tan oladigan bo'ldi. Ayni paytda shartnoma Iroqni „do'stik“ va ittifoqchilik“ rishtalari bilan Buyuk Britaniyaga bog'lab qo'ydi. Chunonchi tashqi siyosatda Iroq Buyuk Britaniya bilan maslahatlashib olishga majbur edi.

¹ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 265-л.

² С. А. Могилевский, Новейшая история зарубежных стран Европы и Америки (1917-1945)<< Просвещение>> М., 1967, 87-л.

³ П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926, М., 1959. 178-л.

⁴ К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж, М., 1957. 79-л.

Iroqda ingliz harbiy bazalari saqlab qolindi. Bundan tashqari, Iroq mudofaasi masalasida Buyuk Britaniya manfaatlarini hisobga olishi zarur edi. Ayni paytda Buyuk Britaniya Iroqqa o'z maslahatchilari va ekspertlarini yuborishda monopol huquqqa ega edi.

1932-yil 3-oktabrda Iroq Millatlar Ligasiga qabul qilindi va shu tariqa u to'la bo'lmasa-da, davlat mustaqilligiga erishdi.¹ 1933-yilda hokimiyatga Al-G'ayloniy keldi. Hukumat bir necha marta o'zgardi. Hech bir davlat o'z mustaqilligini oson yo'l bilan mustahkamlay olmagan. Iroq ham bundan mustasno emas. 1936-yilning 29-oktabrida Iroqda o'tkazilgan harbiy to'ntarish buning dalilidir. Bu to'ntarishga general Bakr Sidqiy rahbarlik qildi va Iroq qiroli G'ozii 1 ni hukumatni tarqatib yuborishga majbur etdi. Iroqning eng boy shaxslaridan biri, to'ntarishning faol ishtirokchisi Hikmat Sulaymon bosh vazir etib tayinlandi. Bakr Sidqiy esa Iroq armiyasi bosh shtabining boshlig'i lavozimini egalladi. Hikmat Sulaymon hukumati „Milliy islohotlar hukumati“ deb ataldi. Bu hukumat, hatto, davlat yerlarini yersiz dehqonlarga bo'lib berishni va'da qildi. Biroq asosan katta yer egalari, qabila shayxlari va savdogarlardan iborat parlament agrar islohot o'tkazishga yo'l bermadi.

Hikmat Sulaymon va Bakr Sidqiylar esa o'z siyosiy muxoliflarini qatag'on qilishni davom ettirdilar.² Ayni paytda ular fashistlar Germaniyasi va Italiya bilan yaqinlashish yo'lini tutdi. Bunga qarshi bir qator vazirlar hukumat tarkibidan chiqdi. Shu tariqa „Milliy islohotlar“ hukumati barham topdi. Bakr Sidqiyga qarshi fitnalar uyushtirishga olib keldi. 1937-yilning avgustida Sidqiy o'ldirildi. 1939-yilning 25-dekabrda Nuri Sad boshchiligida yangi hukumat tuzildi.³ 1939-yilning 3-aprelida qiroli G'ozii 1 halok bo'ldi (avtomobil halokatida) va uning 4 yashar o'g'li qiroli deb e'lon qilindi. Shu tariqa amalda butun hokimiyat Nuri Said qo'lida to'plandi. Ikkinchi jahon urushi boshlangach, Iroq Germaniya bilan diplomatik aloqasini uzdi va o'zining betarafligini e'lon qildi. Shunday bo'lsa-da, uning iqtisodiyoti amalda Buyuk Britaniyaga xizmat qildi. 1941-yilning

¹ В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945гг.М., 1986,331-л.

² O'sha asarda

1-aprelida „Oltin kvadrat“ deb atalgan harbiy tashkilot (Al-G'ayloniy) davlat to'ntarishi o'tkazdi. Biroq bu hol uzoq davom etmadi. 2-may kuni Buyuk Britaniya armiyasi harbiy harakat boshladi va Iroqni to'la ishg'ol qildi, yana Buyuk Britaniyaga xayrixoh kuchlar hukumati tiklandi. 1943-yilning 17-yanvarida Iroq Germaniya va Italiyaga qarshi urush e'lon qildi.

Misr XIX-asrning 80-yillarida Buyuk Britaniya mustamlakasiga aylandi. Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni metropoliya, xomashyo ba'zasiga aylantirdi. Mamlakatda saqlanib qolingan qirollik hokimiyati amalda Buyuk Britaniya tayanchiga aylantirildi. Birinchi jahon urushi tugaganidan so'ng ozodlik kurashining yangi to'lqini boshlandi. Vatanparvar kuchlar „Misr vakillari“ (Vadf Misri) deb atalgan tashkilot tuzdilar. U Misr mustaqilligi uchun kurshni boshqaruvchi tashkilot edi. Tashkilotni Saad Zag'lul boshqardi. Tashkilot Misrga mustaqillik berishni talab qildi. Bunga javoban inglizlar „Misr vakillari“ ning faoliyatini taqiqladi. S.Zag'lul Malta oroliga surgun qilindi. Bular Misrda ozodlik qo'zg'olonining boshlanishiga turtki bo'ldi. 1919-yilning 9-may kuni Qohira aholisi namoyishga chiqdi. Namoyish uch kun davom etdi. << Misr – misrliklar uchun >> shiori ostida o'tkazilgan ushbu tinch namoyish mustamlakachilar tomonidan o'qqa tutildi. Bu namoyishning qo'zg'alonga aylanib ketishiga olib keldi. Qo'zg'alon katta qiyinchilik bilan bo'lsa-da, bostirildi. Aholi noroziligini pasaytirish uchun Saad Zag'lul mamlakatga qaytarildi. Ayni paytda u Parij tinchlik konfirensiyasiga ham yuborildi. Biroq Zag'lul Misr mustaqilligining tan olinishiga erisholmadi.

Aksincha, Misr ustidan Buyuk Britaniya protektorati tan olindi.¹ Ammo Buyuk Britaniya hukmron doiralari Misrni bundan buyon eski usullar yordamida itoatda saqlab turishi mumkin emasligini yaxshi tushunar edilar. Endi Buyuk Britaniya << yangi >> – sinalgan yo'lni tanladi. Bu yo'l Misrga davlat mustaqilligini berish, biroq turli kuchli vositalar yordamida uning amalda Buyuk Britaniyaga qaramligini saqlab qolish yo'li edi. Shu tariqa Buyuk Britaniya 1922-yilning 28-fevralida Misrning mustaqilligini tan oldi.² Misr mustaqil suveren davlat deb e'lon qilindi. Buyuk Britaniya o'zida Misr hududidagi imperiya

¹ В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. М., 1967, 164-л.

² O'sha asarda

³ В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М., 1959, 235-л.

yo'llarini qo'riqlash, Misrni chet el agressiyasidan himoya qilish, chet el manfaatlarini va kam sonli millat vakillarini himoya qilish huquqlarini saqlab qoldi. 1923-yilda qabul qilingan Konstitutsiya Buyuk Britaniyaning yuqorida sanab o'tilgan huquqlarini qonunlashtirib qo'ydi.¹ Chet elliklarning barcha huquq va imtiyozlarini saqlab qolindi. 1924-yilning yanvarida Saad Zag'lul boshchiligidagi hukumat tuzildi.

Saad Zag'lul hukumati Sudan xalqining mustaqillik kurashini qo'llab-quvvatlay boshladi. Shuning uchun Buyuk Britaniya hukumati Zag'lulni hokimiyatdan chetlashishga qaror qildi. 1924-yilda misrlik terrorchi tomonidan Sudandagi ingliz general-gubernatori o'ldirildi. Bundan Buyuk Britaniya Misrga qarshi harbiy harakat boshlashga bahona sifatida foydalandi, Natijada Zag'lul hukumati iste'fo berishga majbur bo'ldi. Buyuk Britaniya bilan hamkorlik qilish tarafdorlaridan iborat yangi hukumat tuzildi.²

1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Misr xalqi turmush darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatdi.³ Chet el monopoliyalari mamlakatni talay boshladi. Paxtachilik qisqardi. Soliq eski holicha qoldi. Shunday bir sharoitda 1930-yilda Buyuk Britaniya Misrga yanada haqoratli yangi shartnomani qabul qildirishga urindi.⁴ Lekin Bosh vazir Naxxas podsho buni qabul qilmadi. Shundan so'ng qirol Fuad Ismoil Sidqiyni Bosh vazir qilib tayinladi. Bu hol milliy-ozodlik kurashining yangi to'lqini boshlanishiga sabab bo'ldi. Ozodlik kurashi raxbarlariga qarshi repressiyani kuchaytirish maqsadida Misr hukumati 1930-yilning oktabrida 1923-yilgi Konstitutsiyani bekor qildi va parlamentning huquqlarini cheklovchi 1940-yilda Italiya qo'shinlarini Misrdan surib chiqardi. 1942-yilda fashistlar Germaniyasi agentyurasi Misrda davlat to'ntarishini tayyorlashga kirishdi. Bungay yo'l qo'ymaslik uchun qirol saroyini ingliz armiyasi egalladi va Buyuk Britaniya tarafdori bo'lgan hukumat tuzildi. 1943-yilning may oyiga kelib butun shimoliy

¹Л. П. Кожевникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг.М., 1959.151-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 272-л.

³ Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 163-л.

⁴ Z.R.Nuriddinov, G'arbmamlakatlariningengyangitarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 378-bet.

rayon nemis-italyan qo'shinidan tozalandi. 1945-yilning fevral oyida Misr Germaniya va Yaponiyaga qarshi urush e'lon qildi. Bu Misrga Birlashgan Millatlar ta'sis konfirensiyasida qatnashish huquqini berdi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, XX asr boshlarida ham Jazoir Fransiya mustamlakasi zulmi ostida edi. (Fransiya Jazoirni 1830-yildayoq bosib olgan edi.) Birinchi jahon urushi yillarida Jazoir iqtisodiyoti Fransiya manfaatiga xizmat qildirildi. Fransiya armiyasi saflariga chaqirilgan jazoirliklardan front orti ishlarida foydalanilgan. Urush Fransiyaning qiyin ahvolga solib qo'ydi. Bunday sharoitda mustamlakalarda milliy-ozodlik kurashiga o'qinini pasaytirish nihoyatda muhim edi. Shu maqsadda metropoliya hukumati 1919-yilda Jazoir uchun alohida dekret chiqardi.¹ Unga ko'ra, soliq masalasida fransuzlar va jazoirliklar o'rtasida mavjud notenglik tugatildi. Dehqonlar, savdogarlar, ziyolilar, harbiy xizmatchilar va davlat organlari, amaldorlarga mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlariga o'tkaziladigan saylovda qatnashish huquqi berildi. Biroq dekret jazoirliklarning boshqa masalalardagi huquqsizligiga daxl qilmadi. Jazoir xalqi milliy-ozodlik kurashini hech qachon to'xtatgan emas. 1920-yilda Jazoir vatavparvarlari „Yosh jazoirliklar“ partiyasini tuzdilar.² Partiyaga Jazoir xalqining qahramoni Abdulqodirning nabirasi Amir Holid rahbarlik qildi.

Partiya jazoirliklar huquqini fransuzlar huquqiga tenglashtirishni, irqiy kamsitishni tugatishni, mahalliy aholidan Fransiya parlamenti deputatlar saylanishiga ruxsat etilishini, matbuot va uyushmalarga birlashish kabi erkinliklar berilishini talab etdi. 1927-yilda „Saylangan musulmonlar federatsiyasi“ tashkiloti hamda „Jazoir ulamolari ittifoqi“ tashkil topdi va mustaqillik uchun kurashdi.³ 1929-1933-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi Jazoir iqtisodiyotiga katta talofat yetkazdi. Bu esa xalqning turmush darajasi yanada yomonlashuviga olib keldi. Buning ustiga to'rt yil davom etgan qurg'oqchilik oqibatida chorva mollarining 80% i qirilib ketdi. 1936-yilda Fransiya hokimiyat tepasiga kelgan Xalq fronti

¹ Л. П. Кожевникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959. 151-л.

² В. В. Александров, Новейшая история стран Европы и Америки (1918-1945), <<Высшая школа>> М., 1986, 272-л.

³ Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада, М., 1959, 163-л.

⁴ Z.R.Nuriddinov, G'arbmamlakatlarining eng yangi tarixi, <<O'qituvchi>>, T., 1978, 378-bet.

hukumati mustamlakachilik tartibini yumshatishga qaratilgan qator o'zgarishlar joriy etdi. Tez orada Jazoir xalqlarining milliy-ozodlik kurashiga rahbarlik qiluvchi barcha kuchlarning umumjazoir yig'ini – Musulmon Kongressi chaqirildi.¹ Kongress Xalq frontini qo'llab-quvvatlashini ma'lum qildi. Ayni paytda Kongress „Milliy Xartiya“ deb atalgan hujjat qabul qildi. Bu hujjatda mustamlakachilar joriy etgan, jazoirliklarni tahqirlovchi „yerli aholi kodeksi“ ni bekor qilish talab etilgan edi. 1940-yilda Fransiya taslim bo'lgach, Jazoir amalda fashistlarga qaram bo'ldi. Bu hol milliy burjuaziya orasida bo'linish yuz berishiga olib keldi. Uning bir qismi Germaniya bilan, katta qismi esa AQSH bilan hamkorlik qilish tarafdori edi. Biroq bu holat uzoq davom etmadi. 1942-yil noyabrida Shimoliy Afrikaga tashlangan ingliz –amerika qo'shinlari nemis-italyan qo'shinlariga qaqshatqich zarba berdi. Fashist qo'shinlari Jazoidan ham quvib chiqarildi.² Lekin bu hodisa Jazoir mustamlaka zulmidan ozod etmadi. U Fransiya mustamlakasi bo'lib qolaverdi. Birinchi jahon urushi oxirigacha ham Marokashning katta qismi hali mustamlakachilar tomonidan amalda bosib olinmagam edi. Mamlakatning xuddi shu ozod qismida bo'ysunmas qabilalarning o'z davlatlari mustaqilligini saqlab qolish yo'lidagi kurashi boshlandi.

1920-yilda Ipaniya Marokashning Rif viloyatini bosib olish niyatida hujum uyushtirdi.³ Ispan bosqinchilariga qarshi kurashga Muhammad Abdul Karim boshchilik qildi. 1921-yilning iyulida rifliklar ispan qo'shinlarini tor-mor etdilar. Sentabr boshlarida Rif Respublikasining tuzilganligi e'lon qilindi. Abdul Karim Respublika prezidenti lavozimini egalladi. Bundan Marokashning bir qismini bosib olgan Fransiya mustamlakachilari tashvishga tushib qoldilar. Ular qo'zg'alon fransuz mustamlaka hududlariga ham tarqalib ketishidan qo'rqdilar. Endi Fransiya Rif Respublikasini tugatish payiga tushdi.⁴ Shu maqsadda 1924-yilning yozida unga hujum qildi. Biroq Fransiya o'zi rejalashtirgan oson g'alabaga

² А. С. Бланк Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964, 55-л.

² А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970, 45-л.

³ Л. И. Гинцберг, Я С Драбкин, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатура. М, 1961, 89-л.

⁴ Л. И. Гинцберг, Рабочее и коммунистическое движение Германии в борьбе против фашизма (1919-1933). 1978, 97-л.

⁵ Д. С. Давидович, Революционный кризис 1923 г. в Германии и Гамбургское восстание. М., 1963, 105-л.

⁶ Я. С. Драбкин, Ноябрьская революция в Германии. М., 1967, 160-л.

erisha olmadi. Endi u Ispaniya bilan birgalikda Rif Respublikasini qonga botirishga kirishdi. 1925-yilning sentabrida bu ikki davlat armiyasi birgalikda Rif Respublikasiga qarshi hujum boshladi. Urush harakatlari 1926-yilning may oyigacha davom etdi. Kuchlar teng bo'lmagan bu urushda Rif Respublikasi armiyasi yengildi. Abdul Karim asirga olindi. Shundan keyin ham qurolli qarshilik ko'rsatish to'xtamadi va 1934-yilgacha davom etdi. 1934-yilda Marokash milliy burjuaziyasi va ziyolilari <<Mag'ribchilar bloki>> deb ataluvchi siyosiy tashkilot tuzdilar. Bu tashkilot Marokash sultoni hokimiyatini kengaytirishni talab qildi. Biroq mustamlakachilar bu talabni rad etdilar. 1937-yilda esa tashkilot faoliyati ta'qiqlandi. Ispaniya Marokashida Franko diktaturasi o'rnatildi. 1940-yilda Fransiya Germaniya tomonidan tor-mor etilgan.

Xulosa

„ 1924-1929-yillarda Yevropa mamlakatlarining iqtisodiy o'sishi” mavzusini o'rganish asosida quyidagi xulosalar ishlab chiqildi:

- Yevropa mamlakatlari iqtisodiy sohada rivojlanish jarayonida bir qator qiyinchiliklarga duch kelgan.Shunga qaramasdan ushbu mamlakatlarda iqtisodiy sohani rivojlantirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirilgan.
- Yevropa mamlakatlarida barqarorlik yillarida dastlab iqtisodiy sohani boshqarish jarayonlari sust olib borilganligi, mamlakatlarning ijtimoiy ahvoli, shuningdek o'sha davrdagi mavjud siyosiy qiyinchiliklar atroflicha tahlil qilindi.
- Mamlakatlarning iqtisodiy sohani boshqarishda olib borilgan chora-tadbirlari tahlil qilindi.
- Davlatlarning iqtisodiy sohani rivojlantirish bilan bog'liq jarayonlar va undagi duch kelingan qiyinchiliklar tadqiq etildi.
- Barqarorlikning dastlabki yillarida iqtisodiy sohani yo'lga qo'yishda islohotlar bazasi mavjud ekanligi va ularning alohida qimmatdorligi masalalari haqida mushohadalar berildi.
- Iqtisodiy isloholarning o'tkazilishi mamlakatlarning iqtisodiy sohasiga ijobiy ta'sir etishi va mavjud muammolarning hal etilishiga qaratilgan chora-tadbirlar atroflicha beyon etildi.
- 20-yillarda iqtisodiy sohadagi muammolarning ayrimlari hal etilgan bo'lsada, lekin to'liq o'z yechimini topmagan edi.
- 1924-yildan keyin mamlakatlarning dastlabki iqtisodiy ahvoli xususida ma'lumotlar berildi.
- Barqarorlik yillarida Yevropa davlatlarda olib borilgan iqtisodiy o'zgarishlar, moliyaviy moddiy-texnik bazaning yaxshilanishi kabi masalalar yoritildi.
- Iqtisodiy sohani rivojlantirishga xizmat qiladigan islohotlarning mohiyati va ularning ahamiyati xususida to'xtalib, chuqur tahlil qilindi.
- Barqarorlik yillarida barcha sohalar qatorida ijtimoiy sohani rivojlantirishga ham alohida e'tibor berildi.

- Shuningdek, siyosiy sohani rivojlantirishga va uning ahamiyati xususida batafsil mulohazalar berildi.

Olingan xulosalar asosida quyidagi nazariy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

- Mamlakatlarning iqtisodiy ahvolini rivojlantirishda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- Iqtisodiy sohani rivojlantirishda iqtisodiy islohotlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish;
- Iqtisodiy sohani rivojlantirishda yangi islohotlar loyihasini ishlab chiqish va uni tadbiq qilish;
- Mamlakatlar aholisini ijtimoiy jihatdan himoyalaniishni kuchaytirish.

Foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyayev asarlari

1.1. SH. M. Mirziyayev. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017.

1.2. SH. M. Mirziyayev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir raxbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017.

1.2. SH. M. Mirziyayev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017.

2.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov asarlari

2.1. I.A.Karimov. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. – T.: Sharq, 1998.

2.2. I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008.

2.3. I.A. Karimov O'zbekiston XX asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari .- Toshkent: O'zbekiston, 1997.

3. Maxsus adabiyotlar

2.1. З. Р. Нуриддинов, Гарбмамлакатларинингэнгангитарихи. << Укитувчи>> Т,. 1978.

2.2. В. Г. Ревуненкова, Новейшая история стран запада. М,. 1959.

2.3. В. В. Адександров, Новейшая история стран Европы и Америки 1918-1945-гг. М,. 1986.

2.4. С. А. Могилевский, Д. П. Принскер, В. Г. Ревуненков, С. М. Стецкевич, В. К. Фураев, Новейшая история зарубежных стран Европа и Америка. (1917-1945). М,. 1967.

2.5. Ю. В. Борисов, Новейшая история Франции (1917-1964). М,. 1966.

2.6. С. Н. Гурвич, Рабочее движение и левый блок во Франции (1921-1926). М,. 1966.

2.7. М. Дюкло, Мемуары. М,. 1974.

2.8. Ю. В. Егоров, Народный фронт во Франции. Л,. 1972.

История Франции. М,. 1973.

2.9. Л. П. Коженникова, Рабочее и социалистическое движение во Франции в 1917-1920 гг. М., 1959.

Компартия Франции в борьбе за народный фронт. М., 1968.

Очерки рабочего движения Франции (1917-1967). М., 1968.

2.10. С. С. Салычев, Французская социалистическая партия в период между двумя мировыми войнами 1921-1940. М., 1968.

2.11. В. П. Спирнов, Новейшая история Франции 1918-1975. М., 1979.

2.12. М. Торез, Избранные произведения. М., 1959.

2.14. З. В. Черхуна, Становление Французской коммунистической партии. М., 1976.

2.15. К. Б. Виноградов, Дэвид Ллойд Джордж. М., 1957.

2.16. Ф. Д. Волков, Англо-советские отношения (1924-1929). М., 1958.

2.17. П. В. Гурович, Всеобщая стачка в Англии 1926 года. М., 1959.

2.18. Н. Ф. Могульский Англия в 1924-1927 годах. М., 1957.

Рабочее движение в Англии накануне второй мировой войны. М., 1968.

2.19. Г. Поллит, Избранные статьи и речи (1918-1939). М., 1955.

2.20. В. Г. Трухановский, Внешняя политика Англии на первом этапе общего кризиса капитализма (1918-1939). М., 1962.

Новейшая история Англии, М., 1958.

Уинстон Черчилль. М., 1977.

2.21. А. С. Бланк, Коммунистическая партия Германии в борьбе против фашистской диктатуры. М., 1964.

2.22. Л. И. Гинсбург, Немецкие антифашисты в борьбе против гитлеровской диктатуры. М., 1961.

2.23. А. С. Бланк, Германская история в новое и новейшее время. М., 1970.

2.24. Д. С. Давидович, Революционный кризис 1923 г в Германии и Гамбургское восстание. М., 1963.

2.25. Я. С. Дрябкин, Ноябрьская революция в Германии. М., 1967.

2.26. Я. С. Дрябкин, Становление Веймарской республики. М., 1978.

2.27. И. М. Кривогуз, Спартак и образование Коммунистической партии Германии. М., 1962.

- 2.28. В. Д. Кульбакин, Очерки новейшей истории Германии. М., 1963.
- 2.29. К. Либкнехт, Избранные речи письма и статьи. М., 1961.
- 2.30. М. И. Орлова, Германия 1918-1939 гг. М., 1973.
- 2.31. В. Пик, Избранные произведения. М., 1956.
- 2.32. К. Либкнехт, Ноябрьская революция в Германии. Сб. статей и материалов. М., 1960.
- 2.33. М. А. Полтавский, Баварская советская республика. М., 1959.
- 2.34. М. И. Орлова, Очерки истории германского рабочего движения. М., 1964.
- 2.35. Г. Л. Розанов, Очерки новейшая истории Германии. М., 1959.
- 2.36. Э. Тельман, Избранные речи и статьи. М., 1957-1958 т.